

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEK TILI VA ADABIYOT  
UNIVERSITETI  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINIO'QITISH FAKULTETI**

**"Himoyaga ruxsat etilsin "  
Fakultet dekani  
f.f.d. B.Abdushukurov**

-----  
“---” -----2018 y

**5111200-“O'zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta'lif yo`nalishi IV kurs 402-guruh talabasi Karimova Sohiba Umirovnaning “Afsonalarning o'quvchilar axloqiy-ma'naviy tarbiyasidagi roli” mavzusida yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH I**

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ R.Niyozmetova

“O'zbek adabiyotini o'qitish  
metodikasi” kafedrasi professori., ped.f.d.

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ T.Matyoqubova

“O'zbek adabiyotini o'qitish  
metodikasi” kafedrasi dotsenti.

\_\_\_\_\_ G.Raxmonova

TDIU akademik litseyi  
kafedra mudiri

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

“O'zbek adabiyotini o'qitish  
metodikasi” kafedrasi mudiri  
f.f.d. \_\_\_\_\_ Z.Mirzayeva  
2018yil “\_\_\_”-

**TOSHKENT-2018**

## MUNDARIJA

<b>BMI ning umumiy tavsifi .....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. O`zbek xalq og`zaki ijodida afsonalarni o`rganishning o`ziga xos xususiyatlari.....</b>	<b>9</b>
1.1. Afsonalar va ularning o‘quvchilar axloqiy-ma’naviy tarbiyasidagi roli ..	9
1.2. Afsonalarni tahlil qilish usullari.....	21
<b>II bob. Adabiyot darslarida xalq dostonlarini o‘rganishda samarali metod va usullardan foydalanish.....</b>	<b>29</b>
2.1. Mirkarim Osimning tarixiy asar yaratish mahorati.....	29
2.2. Mirkarim Osimning “To‘maris” afsonasini sharhlab o‘rganish .....	34
2.3. Afsonalarning badiiy talqini.....	45
<b>III bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi va tajriba-sinov ishlari natijalari.....</b>	<b>61</b>
3.1 Mirkarim Osimning “To‘maris” afsonasini sharhlab o‘rganish .....	61
3.2. “Shiroq” mavzusi uchun dars ishlanmasi va tahlili.....	69
<b>Xulosa.....</b>	<b>70</b>
<b>Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	

### BMI ning umumiy tavsifi

**Mavzuning dolzarbligi.** Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste`dodi va qobiliyatlarini to`liq amalga oshirishga e`tibor berishga bog`liq bo`ladi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta`minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O`zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo`lmadi.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasida uzlusiz ta`lim tizimini takomillashtirish, uni jahon ta`limi standartlari darajasiga ko`tarish, shaxsni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, shuningdek, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri etib belgilandi.

Ayni

paytdajamiyatdaroyberayotganijtimoyo`zgarishlarnio`zko`zibilanko`rib,  
ularnionglihisetadigan,  
davrningglobalmasalalarixususidamustaqlifkrlovchijtimoiy-  
ma`naviyfaolavlodshakllanmoqda.

O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, «...ta`limdan asosiy maqsad bolalarga ilgarigidek bilim berish emas, bilim olishga o`rgatishdir. Bunda o`quvchilar passiv tinglovchi bo`lib qolmay, balki bilim olis jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak... Agar bolalar erkin fikrlashga o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi passiv bo`lishi muqarrar»<sup>1</sup>.

Shu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo`lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni nazarda tutadi.

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O`zbekiston.1997. -156 .

“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak mahnaviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas`uliyatni o`z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog`liq.”<sup>2</sup>

Shu maqsadda yana bir muhim hujjat – “**Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo`llab-quvvatlash to`g`risida**”gi Farmon qabul qilindi.<sup>3</sup>

Bu haqda gapirganda, O`zbekiston aholisining 60 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo`lgan yoshlar tashkil etishini tahkidlash lozim. Biz yoshlar uchun ularning sog`lom tug`ilishidan boshlab, toki mustaqil hayotga kirgunicha barcha zarur sharoitlarni yaratib berish maqsadida qanday katta ishlarni amalga oshirayotganimiz sizlarga yaxshi ma`lum.

Bolaning fikrlashi va ilm olishga intilishi o`zaro uzviy aloqadorlikdagi jarayondir. Xalq og`zaki ijodi namunalarini o`qitish va tahlil qilish jarayonida xalq yaratgan qahramonlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvori, ruhiy olamga munosabat bildirishi o`quvchini fikrlashga yo`naltiradi.

Xalq og`zaki ijodi asarlari, xususan afsonalar tahlili ajdodlarimizning yosh avlodni barkamol kishilar qilib voyaga yetkazish borasidagi qadimiy va ilg`or an`analarini tiklash yo`lidagi muhim bir qadamdir. Zero, «Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharafli vazifa turgan bir paytda bu ma`naviy qadriyatlarning ahamiyati ming karra ortdi. Nega deganda, har qanday ulug` maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go`zal hayot barpo etish, avvalo shu jamiyat a`zolari bo`lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodiga bog`liqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda, xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini o`ylab, qattiq bel bog`lab mehnat qilayotgan ma`suliyatli bir davrda mazkur tushunchalar yanada teran ma`no kasb etadi»<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup>Prezident Shavkat Mirziyoevning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagい ma`ruzasi. 2017.

<sup>4</sup> Karimov I.A. Istiqlol va ma`naviyat.-T.: O`zbekiston, 1995. -127-128

“To‘maris” va “Shiroq” afsonalarining zamonaviy adabiyotlarda qayta talqin qilinishi va uni o‘quvchilarni fidoiylikka, Vatan, Ona yurt himoyasi uchun kurashga da’vat etuvchi obrazlar darajasidagi talqinidan, aslida avlod-ajdodlarimiz ham farzandlarni umumbashariy tuyg‘ular, milliy qadriyatlarga, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida yuksak ma’naviy qudratidan samarali foydalanib kelishgan.

Afsonalar badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg‘or va hayotbaxsh an’analarni o‘zida mujassamlashtirgan ma’naviyat sarchashmasidir. Ana shu ma’naviy merosning eng qadimiyligi qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq urf-odatlar, an’analar alohida o‘rin tutadi.

### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi:**

O‘zbek folklorshunosligida. Mifologik obrazlarning mohiyati, genetic ildizlari va epik talqini masalsi G’.Akramov, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayevlar tomonidan tadqiq qilingan. Shuningdek, B.Jumaniyozovning “Yalmog‘iz”, J.Eshonqulovning “Dev”, A.Qayumovning “Pari”, A.Tillavovning “Ot”, D.Fayziyevanining “Ilon – ajdar” obrazlari tahliliga bag‘ishlangan dissertatsiyalarda, shuningdek, T.Haydarovning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida mifologiya unsurlari, T.Rahmonovning mif va uning epik motivlar o‘zagi sifatidagi xususiyatlarini tadqiq etishga doir ilmiy ishlarida ham mifologik obrazlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning folklore asarlarida bajaradigan vazifalari keng yoritib berilgan.

Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish masalasi mustaqillikgacha bo‘lgan davrda ham, istiqlol davri adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan. Afsonalarni sharhlab, tahlillardan foydalanib o‘rganish masalalarini targ‘ib qilish, dars jarayoniga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalaladir.

Adabiyot o‘qitish metodikasida xalq og‘zaki ijodi haqida Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, O.Madayev, G.Xolboyeva, D.Jumanazarova boshqa metodistolimlar so‘z yuritganlar.

**BMI ning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** BMI mavzusini Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti "O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi" kafedrasini 2016-2018 – yillarga rejallashtirilgan BMI mavzular bankida aks etgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Xalq og‘zaki ijodini, xususan afsonalarni o‘rganish usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- milliy pedagogikamizda, xususan, adabiy ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiya muammolarining o‘rganilishiga oid hozirgacha mavjud ilmiy tadqiqotlar va metodik ishlarni o‘rganish, ularni bugungi kun talablari andozasida tanqidiy tahlil etish;

- umumiy o‘rta ta’lim, akademik litseylar uchun yaratilgan DTS, dastur hamda darsliklaridagi xalq dostonlarining berilish darajasini o‘rganish, mavjud holatning aniq tavsifini berish;

- afsona va uning tasniflari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash;

- afsonalarni tahlil qilish, qahramonlarini qiyosiy o‘rganish;

- dostonlarni o‘rganish uchun samarali natija beradigan metod, vosita va zamonaviy texnologiyalarni amaliyatga tatbiqini tayyorlash;

- “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarining zamonaviy adabiyotlarda qayta talqin qilinishiga tayanib, o‘quvchilarni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash;

- muammoga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, ularning natijalarini umumlashtirish;

- mavzu va muammo yechimiga bog‘liq bo‘lgan tavsiyalar tizimini ishlab chiqish;

- dars ishlanmalari va tahlillar ilova qilish.

**Tadqiqotning obyekti:** Umumta’lim maktablarida va akademik litseylarda xalq og‘zaki ijodini innovatsion texnologiyalar vositasida o‘rganiladigan ishlarni jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** Umumta’lim maktablarida xalq og‘zaki ijodini, xususan, afsonalarining zamonaviy adabiyotlarda qayta talqin qilinishinio‘rganish masalalarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy g‘oya va milliy mafkura, barkamol avlod tarbiyasi bilan bog‘liq asarlaridagi nazariy qarashlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasidagi qarorlari va dasturiy hujjatlari tadqiqot uchun metodologik asos qilib olindi. Ishda qo‘yilgan barcha muammolarni tadqiq etishda pedagogika va adabiy ta’lim metodikasi ilmining eng so‘nggi yutuqlariga, ma’naviy-axloqiy tarbiya va xalq og‘zaki ijodi muammolari bilan shug‘ullangan metodist olimlarning ilmiy-nazariy mulohazalariga asoslanildi. Shuningdek, nazariy-mantiqiy tahlil, taqqoslash; sharhslash, suhbat, ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish; klaster, chuvalchang, yelpig‘ich, hamkorlikda ishslash kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.** “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarini o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi g‘oyasini o‘rta maktab adabiyot darslarida o‘qitishning samarali metodlari orqali ko‘rsatib berish. Adabiyot darslarida afsonalarino‘rganishga bag‘ishlangan ma’lumotlar matni ustida olib boriladigan ishlarning mazmunini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi, metod va usullari tadqiq etiladi. Ishning materiallari va tavsiyalaridan, dars ishlanmalaridan xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI mavzusi Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU “O‘zbek adabiyotni o‘qitish metodikasi” kafedrasи yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari va materiallari malakaviy pedagogik amaliyot o‘tagan Toshkent shahridagi Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta’lim maktabio‘quvchilariga O‘zbek adabiyoti fanidan dars

mashg‘ulotlari o‘tish jarayonida amaliyotga joriylashtirilgan, ochiq dars o‘tkazilgan (ochiq dars ishlanmasi ilova qilinadi).

**Ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiylar xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiylar hajmi 73 sahifani tashkil etadi.

## **I bob. O`zbek xalq og`zaki ijodida afsonalarni o`rganishning o`ziga xos xususiyatlari**

### **1.1. Afsonalar va ularning o`quvchilar axloqiy-ma`naviy tarbiyasidagi roli**

«Afsona» atamasi forscha «afsun — sehr-jodu» ma’nosini anglatuvchi so‘zdan olingan bo‘lib, fantastika, uydirma asosida yaratilgan nasriy hikoyalarga nisbatan qo‘llanadi. O‘tmishda bu atamaning o‘rnida «cow» — *sov* so‘zi ishlatilgan. M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» kitobida izohlanishicha, *sov* atamasi otalar so‘zi (maqol), qadimgi biror voqeani aytib beruvchi hikoya, risola, xat, kitobcha, so‘z va nutq kabi ko‘p ma’nolarni anglatganki, shulardan o‘tmish voqealaridan xabar beruvchi hikoya, qissa tushunchalari qay darajadadir afsona hodisasini ham ifodalab kelgan.<sup>38</sup> Aristotel afsonalarni «haqiqatdan xabar beruvchi yolg‘on hikoyalardir» deb ko‘rsatadi.

Afsona — o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi, an’anaviy va keng tarqalgan janrlaridan bin. Hayotiy voqeii kni xayoliy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma’lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og‘zaki nasriy asarlar afsona deyiladi. Afsonada hayotiy voqelikning tasviri epik talqinga bo‘ysundiriladi. Yetakchi motivlar tarkibi esa an’anaviy epik detallarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ko‘pincha u ertakka o‘xshab ketadi. Biroq ular ertaklar kabi qat’iy kompozitsiyaga ega emasligi bilan farq qiladi.

Afsona professional ijrochilikka asoslanmaydi. Uni bilgan kishi o‘zi istagan shaklda aytaveradi. Afsona sof axborot beruvchilik vazifasini bajaradi. U ko‘pincha biron-bir voqea-hodisaga kishilarni ishontirish maqsadida aytildi. Afsonada bayon qilinayotgan voqeanning o‘tmishda bo‘libo‘tganligiga alohida urg‘u beriladi.

Epik tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan qaraganda, afsonalar miflardan keyingi stadal bosqich sifatida shakllanganligi seziladi. Chunki ularning tarkibida mifologik obrazlar muhim o‘rin tutadi.O‘zbek xalq afsonalarining sujet tarkibida turkiy va boshqa xalqlar mifologiyasi bilan bog‘liq ko‘plab qadimiy motivlar saqlanib qolgan.

Afsona kompozitsiyasi ertaklarniki kabi an'anaviylikka, qat'iylikka ega emas. Uning sujet tuzilishi sodda va qisqa. Afsonalar voqeikni g'ayritabiiy, fantastik tasvirlashi jihatidangina ertaklarga o'xshab ketadi, xolos.

Afsona sujetini turli mifologik, diniy hodisalar, geografik joylar nomi, tabiat hodisalari, ayrim tarixiy shaxs va voqealarga aloqador g'aroyib talqinlar tashkil etadi. Shunga ko'ra afsonalarning mazmun-mundarijasi rang-baranglik kasb etadi. Deyarli barcha afsonalarning sujeti bir yoki ikki epizoddan iborat bo'ladi. Sujet voqealari ko'pincha tugundan boshlanadi. Voqealar talqinida va tasvirida fantastika ustivorlik qiladi.

Afsonalarning asosiy personajlar tarkibi tarixiy shaxslar, xayoliy va mifik obrazlardan iborat.

Afsonalarni g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishi jihatidan shartli ravishda ikki guruhga bo'libo'rghanish mumkin:

1. Sof mifologik afsonalar.
2. Tarixiy afsonalar.

*Mifologik afsonalarda*, asosan, yervaosmonxudolari, homiykuchlar, pirlar, avhyolarningg'ayritabiiyishlari, insonlargako'magi, mifologikpahlavonlar, yeryuzidaodamningpaydobo'lishihaqidahikoyaqilinadi.

Ulardagiayrimepizodlardaislomgaqadaramalqilganqadimgidinlargaaloqadortalqinlar uchraydi. Ibtidoiyinsonlamingdunyoqarashi, tasawur-tushunchalari, diniye'tiqodlarinamoyonbo'ladi.

Mifologikafsonalarningtuzilishijudasoddabo'ladi. Ularda voqelik oddiy bayon qilinadi. Uning konflikti yechimida fantastikaning hal qiluvchi rol o'ynashi- asosiy belgisidir. Mifologik afsonalar miflar bilan genetik aloqadordir. Aniqrog'i, ularning aksariyati miflar asosida yuzaga kelgan. Sababi — ibtidoiy davrda mifologik qahramonlar muqaddas sanalgan va xalqning ma'naviy madadkoriga, ruhiy homiysiga aylangan. Bora-bora bu tasawurlar unutilib, u haqdagi hikoyalar afsonalarda oddiy diniy hikoya qobig'ida saqlanib qolgan. Jumladan, Xizr nomi bilan bog'liq hikoyalar bunga misol bo'ladi. Xizr — mifologik obraz. U ba'zan cho'l piri, ba'zan hosildorlik homiysi sifatida talqin etiladi. Afsonalarda и оби hayot

ichganligi uchun mangu barhayot, sehr-joduga ega, o‘tda yonmas.zarbo‘tmas qilib tasvirlanadi. U yana turli shakllarga evrila oladi: goh odam, goh jonivor, goh buyum ko‘rinishida paydo bo‘lib, odamlarga ko‘mak beradi, yovuzlarga qarshi chiqib, ezgulikning g‘alabasini ta’minlaydi.

*Tarixiy afsonalar* ma’lum bir tarixiy dalil yoki ma’lumot, tarixiy shaxs faoliyati haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan, tarkibida real tarixiy shaxsiar bilan bir qatorda, xayoliy va mifik obrazlar ham ishtirok etadigan og‘zaki nasriy asarlardir. Ularning sujetini tashkil etuvchi voqealar bayonida reallik bilan badiiy to‘qima o‘zaro qorishib ketadi. Bunday afsonalarda real hayotda yashab o‘tgan kishilar haqida hikoya qilinsa-da, tarixiy shaxsning haqiqiy biografiyasi emas, to‘qima biografiyasi beriladi. Ularda hayot haqiqati fantastik tasvir qobig‘iga o‘rab ifoda etiladi.

Tarixiy afsonalar muayyan tarixiy dalil va ma’lumotni asoslash, izohlash, xalqqa tushuntirish uchun xizmat qiladi.

Tarixiy afsonalarda real toponimlar bilan birga xayoliy - mifologik makon ham tilga olinadi. Unga ko‘ra qahramon yer osti yoki suv osti mamlakatlariga, afsonavjy tog‘lar o‘lkasiga safar qiladi.

Shuningdek, tarixiy afsonalarda dev, pari, ajdar, chilton, yuho, ya’juj-ma’juj kabi bir qattor xayoliy va mifologik personajlar mayjud bo‘lib, ular aniq obrazlar bilan muomala-munosabatda tasvirlanadi. Mifologik obrazlar afsona sujetida bajaradigan vazifasiga qarab ikki tipga bo‘linadi:

a) asosiy qahramonga homiylik qiluvchi, yordam beruvchi mifologik personajlar;

b) asosiy qahramonga raqib sifatida harakat qiluvchi mifologik personajlar.

Tarixiy afsonalarga xos bu belgilar epik tafakkurning tadrijiy taraqqiyot tizimida uning mifologik afsonalardan keyingi stadial bosqichda shakllanganligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq tarixiy afsonalari mavzu yo‘nalishiga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

1. *Geneologik afsonalar.* Bularda urug‘—qabila, xalq va elatlarning kelib chiqishi va nomlanishi haqida hikoya qilinadi: «Laqay», «Do‘rmon», «Qirg‘iz»

urug‘larining kelib chiqishi haqidagi afsonalar shular jumlasiga kiradi.

2. *Tarixiy voqea va tarixiy shaxsiar haqidagi afsonalar.* Ularda o‘tmishda yashab o‘tgan dono kishilarning sarguzashtlari, mo‘jizakor ishlari, ajdodlarimizning bonyodkorlik faoliyati, shahar va qo‘rg‘onlarning barpo etilishi haqida hikoya qilinadi. Bunga Buxoro Arki, Xiva qal“asi, Minorayi Kalon qurilishi haqidagi afsonalar misol bo‘la oladi.

3. *Kasb-hunarlar haqidagi afsonalar.* Bularda u yoki bu kasb-hunaming kelib chiqishi, ularning piri haqida hikoya qilinadi. Aytaylik, bo‘yoqchilik kasbining kelib chiqishi hazrati Ayyub, temirchilik kasbining kelib chiqishi Dovud payg‘ambar nomi bilan bog‘lab talqin qilingan afsonalar shu siraga kiradi.

Afsonalar ijro etilishi jihatidan ertak, doston, qo‘shiq askiya kabi alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab qilmaydi. Shuning bu namunalarda matnga xos maxsus an’ana ko‘zga tashlanmaydi. Ularda sehrli voqea-hodisalar shunaqa tasvirlanadiki, odam tinglayotganini o‘zi ham bilmay qoladi.

Ma’lumki, qadim zamonlardan ajdodlarimiz diniy e’tiqodlarga berilib kelganlar . Shuning uchun afsonalarning ko‘pchiligi payqambarlar, avliyolar hayotidan olingan voqealarni eslatadi: “ Kunlardan bir kun Muso payg‘ambar xudo oldiga ketayotgan ekan, erta bahor bo‘lishiga qaramay, don ekayotgan dehqoni ko‘rib qolibdi. Muso unga hali don ekishga erta ekanini aytibdi. Dehqon tajribasiga ishonib, uning gapini rad qolibdi. Xudo bilan suhbatda Muso bu munozara echimini so‘raganida , xudo dehqoning haq ekanini, ammo Muso gapini endi inobatga olish kerakligini bildiribdi. Shunday qilib, Muso xudo oldidan qaytayotganida, havosovugan, qor shamoli esayotganmish. Dehqon esa hayron bo‘lib, osmonga qararmish. Shunda Muso o‘zining haq ekanini dehqonga eslatibdi. Dehqon istehzo bilan kulib, “don ekish vaqt kelishga-ku kelgan, havoning bu buzilishi mening sen bilan tortishganim oqibatidir”- deb javob

beribdi. Shu-shu ekish paytida havo buzilsa, dehqonning payg‘ambarning gapiga ko‘nmaganini eslasharkan”<sup>4</sup>.

Yuqoridagi misoldan mazkur afsonani mazmunan saqlagan holda boshqacharoq aytish ham mumkinligi bilinib turibdi. Afsonalar mazmunan turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning shartli ravishda asotiriy tushunchalari, koinot jismlari, o‘rin - joy nomlari, odatlarini sharhlovchi afsonalarga bo‘lish mumkin.

Asotiriy afsonalarda qadimda yashagan ajdodlarimiz o‘zlariga homiy deb hisoblagan shaxslarni ulug‘laganlar. Diniy e’tiqod masalarini yoritganlar . Masalan, xalqimiz har bir insonning taqdiri tangri tomonidan belgilangan bo‘ladi, ammo inson xatti-harakati, niyati bilan o‘z qismatini o‘zgartirishi mumkin, degan tushuncha bor. Shu fikrni dalilash uchun shunday afsona keltiriladi: “Muso kunlardan bir kun tangri oldiga ketayotganida, yo‘lida oyoq-qo‘li yo‘q majruh bir odamni ko‘ribdi. Odam undan o‘zining taqdiriga jannat yoki do‘zax yozilganini bilib berishni so‘rabdi. Tangri payg‘ambarga: “U odamning oxirgi joyi do‘zax bo‘ladi. Chunki umr bo‘yi uni yemak-ichmakka muhtoj qilmadim, ammo biron marta “Xudoga shukur” demadi”,- debdi. Muso payg‘ambar qaytishida haligi odam undan javob kutibdi.Payg‘ambar bor gapni aytibdi. Shunda odam: “Bo‘lmasa xudoga ayt, men o‘lganimda tanamni shunaqa katta qilib yuborsinki, boshqa hech kimga do‘zaxdan joy qolmasin”,-debdi. Ana shu gapdan keyin bechora jannati bo‘lgan ekan.

Xalqimiz orasida “shirin qiz”, “oyda nima uchun dog‘ bor”, qug‘sh bilan oyning bir oilada yashagani, yulduzlar ularning bolalari ekani haqidagi afsonalar ko‘p. “Qonqus”, “Kuygan yor”, “Oshoba”, “Andijon”, “Tuya cho‘kdi” kabi yuzlab afsonalar borki, ularning yozuvchilarimiz ham o‘z ijodlari davomida foydalanadilar.

Shu bilan birga ba’zan xalqimiz yashaydigan ayrim hududlardagi odatlarga izoh beruvchi afsonalarga ham duch kelamiz. Masalan, O‘zbekistonning turli viloyatlarida yashaydigan aholining bevosita hududiy xususiyatlari borligi hammaga ma’lum.Xususan, Farg‘ona viloyatida istiqomat qiluvchi

<sup>4</sup>Каранг: Мадаев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. Т., Шарқ, 2001.

yurtdoshlarimiz umuman mehmondo'stliklaridan tashqari sertakalluf ekanliklari bilan nom chiqarganlar. Ular o'z mehmonlari ko'nglini olish uchun "oling-oling"ni juda ko'p va tez-tez takrorlaydilar. Ammo xorazmliklar mehmondo'stlikda farg'onaliklardan qolishmasalarda, ortiqcha "oling-oling" bilan mehmonga murojat ham qilavermaydilar. Xorazm viloyatida o'tkazilgan ekspeditsiyalarda bu haqda so'raganimizda, quyidagi afsonani aytib berishdi:

"Xorazm Hirot podsholigi tarkibida ekanida, Hirot shohning o'g'li Xorazmga mehmonga kelibdi. Bu yerda uni katta tantanalar bilan kutib olishibdi va quyuq ziyofatlar uyuştirishibdi. Ammo shahzoda kelgan kunining ertasigayoq jahl bilan o'z yurtiga qaytajagini bildiribdi. Xorazmshoh juda iztirob chekib, bu qadar tez yo'lga otlanish sababini mehmondan so'rabdi. Mehmon xafa bo'lish sababini aytmay o'z yurtiga ketish taraddudini ko'raveribdi. Karvon yo'lga tushay deganda, Xorazmshoh shahzoda otining tizginini ushlab, o'z xatosini ko'rsatishini so'rabdi. Shunda shahzoda:

-Kecha oqshom men dasturxonidan bir parcha go'sht olib yeya boshlaganimda, siz, "shahzodam", -dedingiz va go'shtga yopishib qolgan bir qilni olib tashladingiz. Men yeayotgan go'shtdagি qilni ko'rgan ko'zingiz, go'shtni ko'rmadimi?" debdi. Shundan keyin Xorazimshoh butun tumanlarga jarchi yuborib, farmon e'lon qilibdi: " Xorazm viloyatiga kimda-kim mehmon bo'lib kelsa, uning oldiga holi-baqudrat dasturxon yozing. Yemagini, ichmagini ziyoda qilib qo'ying. Ammo mehmonning taom tanovvul qilishiga aslo aralashmang". Shu voqeadan buyon bu yerliklar mehmondo'stlikni tark etmaganlari holda mehmonni ortiqcha "oling-oling" bilan qiynamaydilar".

Afsonadan ma'lum bo'ladiki, xorazmliklarning mehmondo'stligi o'ziga xos fazilatga ega ekan. Bu odatning qadimiy afsona bilan izohlanishi yana ham ajib taassurot qoldiradi.

Yuqoridagi afsona mazmuniga e'tibor qilsak, unda hayotda bo'lmagan hech qanday lavha yo'q. Undagi voqeа ham, savol-javob ham eshitgan odamda hech qanday shubha qoldirmaydi. Ammo bu voqeaning aniq ro'y bergani haqida ham hech qanday hujjatli dalillar yo'q.

Shuning uchun bu afsonaning hayot haqiqatiga qanchalar mos kelishi yuzasidan aniq hukm chiqarish mushkul. Afsonalarning qiziqligi, ularning inson diqqatini jalb qilish sabablari ham, ehtimol, shu xususiyat bilan izohlanadi. Bunday asarlarning matnida ertaklarga xos bayon usuli, voqeа tanlash tamoyillari ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Quydagi afsonada bu fikr yana bir karra o‘z tasdig‘ini topadi:

“Xudo dunyodagi hamma xalqlarga yer yuzadagi yerlarni bo‘lib beribdi. O‘zi bilan o‘zi ovora o‘zbek o‘sha taqsimotiga ham kechikib boribdi. Bu paytda o‘zbek olishi mumkin bo‘lgan yerning o‘zi qolmagan ekan. Xudo rahmdil emas-mi?! Shuning uchun o‘zbekka: - Mayli, men o‘zimga ikki daryo oralig‘idan bir parcha yer olib qo‘ygan edim, shu joyga sen egalik qilaqol,- degan ekan. Shu-shu o‘zbek hozir O‘zbekiston deb ataluvchi yurtda istiqomat qilarmish... Bu o‘lkaga xudoning nazari tushgani uchun kuzda dalada qolib ketgan ketmon bahorda novda chiqarib gullar emish”.

Ko‘ryapmizki, xalqimiz afsonalarni yaratishda juda ijodkor. U o‘z hayotiga tegishli har bir voqeа-hodisaga, an’anaga, joy nomlariga, hatto o‘zi yashayotgan vatanga mehr bilan munosabatda bo‘lgan va xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari qatori afsonalar vositasida o‘z munosabatini bildirgan. Afsonalar esa ajdodlarimiz tomonidan hayot tajribasi xulosasi sifatida yaratilgan. Demak, afsonalar xalq og‘zaki ijodining epik turidan biri ekan. Ulardan tasvirlangan voqealar, asosan, ijodiy to‘qimalar zaminida yaratiladi. Bu janr namunalarini aytib beruvchi shaxs asar mazmunini saqlagan holda ma’lum o‘zgartirish kiritish mumkin. Afsonalarda mazmun jihatidan xilma-xil voqealar hikoya hilinadi. Bu jihatdan ular asotiriy voqealarni, kosmogonik jismlarni, o‘rin-joy nomlarini, odatlarni izohlavchi turlarga bo‘linadi. Ular xalqimiz tarixini o‘rganishida turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, an’analarni sharhlashda, joy nomlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Rivoyatlar afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar to‘laligicha ajdodlarimiz tomonidan o‘ylab topilgan to‘qima hikoyalardan iborat, bo‘lsa, rivoyatlar hayotda ro‘y bergan qandaydir

tarixiy voqealarga asoslanadi. Ular mazmunan afsonalardan farq qilmaydi, ammo bu asarlar zaminida aniq tarixiy dalil ildizi mavjud bo‘ladi. Rivoyatlarning o‘ziga xosligini ana shu xususiyat ko‘pincha sodir bo‘lgan tarixiy voqeа ishtirokchisi tomonidan yo yozib qoldiriladi yoki aytib beriladi. Ajdoddan avlodga meros sifatida o‘tib bizgacha yetib keladi. Shuning uchun rivoyatlar o‘tmish voqealari haqida bizga ma’lumot berishi bilan qiziqarlidir. Ularda tariximiz saqifalari, mashhur allomalar hayotidan lavhalar, mardlarning jasurligi, ayrim joy nomlarining paydo bo‘lishio‘z aksini topadi.

Rivoyatlar ham afsonalar kabi mazmunan ayrim turlarga bo‘linadi. Shartli ravishda rivoyatlarni tarixiy vao‘rin-joy nomlari bilan bog‘liq asarlar tashkil etadi. Tarixiy rivoyatlarda xalqimiz ozodligi uchun jonini fido qilib kurashgan mard-u maydon farzandlar jasorati yoki o‘zining manfaati yo‘lida butun yurtdoshlarini dushman qo‘liga tutib bergen xoinlarning xiyonati hikoya qilinadi. Bu bilan xalqning mard jasorati ham, xoinning xiyonati ham unutmasligini ta’kidlagandek bo‘ladi. Xususan, ularda To‘maris, Shiroq, Jaloliddin, Temur Malik, Amir Temur kabi haqiqiy insonlar hayoti aks ettirilgan. Bu shaxslar o‘z vatanlarini ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilishda biz uchun haqiqiy ibrat bo‘la oladilar. Agar bugungi kunda har bir yurtdoshimiz Vatanimizni ana shunday go‘zal insonlar kabi sevsа, yurtimiz zavol ko‘rmaydi. Darvoqe, rivoyatlarni, avlodlarga meros qilib qoldirishdan nazarda tutilgan maqsad ham shunday niyat bilan belgilanadi. Ayni paytda Dalvarzin, Guldursin haqidagi rivoyatlarda o‘tkinchi havas deb dushmanга o‘z shahrining darvozasini ochib bergen razil shaxslar qilmishi fosh etiladi. Mazkur shaharlar, qal’alar vayronalari esa munofiq kimsalar qilmishlarini asrlar o‘tsa-da el yodidan o‘chmasligidan dalolat sifatida saqlanib qolgan.

O‘zbek xalqi orasida Imom Buxoriy, Beruniy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy kabi buyuk allomalar haqida yaratilgan o‘nlab rivoyatlar hamon saqlanib kelmoqda.

Mana ulardan bir misol: “Ibn Sino har kuni betoblarni qabul qilar ekan. Ammo navbat bir yigitga etib kelganida, uni chetlab o‘tar ekan. Kunlardan bir

kun yigitning onasi u yotgan to'shak yoniga bir kosa qatiq qo'yib, o'z yumushlari bilan band bo'libdi. Yigit kosadagi qatiqqa tikilib yotsa, shipdan bir ilon tushib qatiqqa zaharini solibdi. Jonidan to'yan yigit alam bilan kosadagi zaharlangan qatiqni jon jahdi bilan ichib yuboribdi. Ammo bir oz o'tmay o'zini tuzuk sezaboshlabdi. Soat o'tgan sayin u sog'ayibdi. Ertasiga ancha o'ziga kelib, yana ibn Sino qabuliga boribdi. Bu safar ham tabib uni chetlab o'tibdi. Ajablangan yigit unga e'tiroz bildiribdi. Shunda alloma:

-Siz kecha va avvalari kelganingizda dardingizga davo yo'q edi. Shuning uchun sizni ko'rmagandim. Chunki, men sizga qatiqni to'shak yoniga qo'yish, unga ilon zahar solishi, bu qatiqni siz ichishingiz kerakligini ayta olmas edim-da. Ammo taqdir sizga bu imkoniyatni yetkazdi. Endi sizga tabibning keragi yo'q. Siz mutlaqo sog'siz. Shuning uchun sizni chetlab o'tdim, debdi”.

Bu rivoyatda Abu Ali ibn Sinoning naqadar mohir, zakiy va dono tabib ekanligi o'z aksini topgan. Rivoyatlar matnini tahlil qilish ularning hajmi katta bo'lmasligini tasdiqlaydi. Ularda voqealar bayoni bir, ikki lavhadan iborat bo'ladi xolos.

Endi o'rinn-joy nomi bilan bog'liq rivoyatga diqqat qiling: “Buxoro bilan Navoiy oralig'ida katta Malik cho'li yastanib yotadi. Uning bir qismini O'rtacho'l, tog' yon Qarnob cho'li ham deb yuritadilar. Malikcho'l yelkasidan esa Zarafshon oqadi. Malikning qoq o'rtasi- avtomobil yo'li yoqasida Malik darvozasi va yopiq hovuz xarobalari saqlangan. “Malik” rivoyatini bizga Qizil tepaning Kenagas qishlog'ida yashovchi mashhur Saidmurod Panoh baxshining o'g'li sakson yoshli usta Berdi ota aytib bergen edi:

-Bir kuni Buxoro amiri faytunda Nurota, Karmana, Ziyodin, Sultonobodni aylanib kelib charchaydi-yu, cho'lda soyabon o'rnattirib, dam oladi. Amirning shotirlaridan biri Malik deguvchi yigit ekan. Amir uxlab qoladi. Shu paytda amirning burnidan bir chivin chiqib, so'ng suv to'la kosa ustida turgan pichoq ustidan yurib o'tib sichqon iniga kirib ketadi. Birozdan so'ng chivin sichqon inidan chiqib keladi-da, yana o'sha suv to'la kosa ustidagi pichoqdan yurib o'tib, podshoning burniga kirib ketadi. Malik botir bu hangomani ko'rib hayratda

qoladi-yu, nima qilarini bilmaydi. Amir bo‘lsa qattiq uxlagan, boshqa amaldoru u xizmatkorlar ham chekkada dam olayotgan ekan. Malik o‘sha chivinni o‘ldiraman desa, amir uyg‘onib qolib unga qo‘l ko‘targanini ko‘rsa, tayinki, boshi ketadi. Nihoyat amir uyg‘onibdi. Malik uning qo‘liga suv quyibdi, amaldorlar davra quribdilar. Amir g‘aroyib tushini ayтибди:

-Tushimda bir uzoq cho‘lga chiqib ketgan mishman. Ancha yurib daryoga yetibman. Daryo ustida temir ko‘prik bor g‘orga kirib ketibman. G‘or ichida ikki xum tilla yotgan mish.G‘ordan chiqib, ko‘prikdano‘tib, cho‘ldan kechib yana taxtinga kelib o‘tiribman. Tushimning ta’birini aytinlarchi, ne kori hol bo‘lar ekan?

Amirning hamrohlari birisi u, birisi bu deyishbdi. Malik dono yigit ekan, u sirni bilibdi-yu, o‘zini kasalga solib yotib olibdi.O‘zimga kelib olsam sizlarga yetib olaman debdi. Amir kishilari bilan jo‘nab ketibdi. Malik darrov ketmon olib o‘sha chivin kirib chiqqan sichqon inini kovlashga tushibdi.

Haqiqatan, u yerda ikki xum tillo bor ekan. Malik tilladan bir xaltasini olib, ahli nomdor, dongdor ustalarni boshlab kelib shu yerga qishloq qudiribdi, hovuzlar bunyod etibdi. Ana o‘shandan buyon cho‘lni “cho‘li Malik ” deb atashibdilar”.<sup>5</sup>

Yuqorida aytganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: rivoyatlar xalq og‘zaki ijodining epik turiga kirgan ommaviy janrlardandir. Ular afsonalardan farqli o‘laroq aniq bir voqeа-hodisa asosida yaratiladi. Rivoyatlar mazmuniga ko‘ra tarixiy va toponimik (o‘rin-joy nomlari izohi) turlariga bo‘linadi. Bunday asarlar voqeaga guvoh bo‘lgan shaxslar tomonidan yozib qoldiriladi yoki avloddan avlodga o‘tib yoziladi.

Xullas, afsonalarda epik ruh hukmronlik qiladi. Ular axborot berish vazifasi bilan bir qatorda estetik vazifani ham ado etadi.

Tarixiy shaxs va tarixiy voqealarga daxldor rivoyatlar yozib olingan davriga qarab, tarixiy faktni talqin qilish xususiyati bilan bir-biridan farq qiladi. Aytaylik, xalq orasida paydo bo‘lgan davridayoq yozib olingan rivoyatlarda tasvirlangan

<sup>5</sup> Умаров С. Ривоят ва ҳаёт. –Т., Фан, 1988.

voqea va hodisalar o'sha davr shart-sharoiti va ruhiga mos keladi hamda keltirilgan dalillarning to'liqligi-yu aniqligi bilan ajralib turadi. Binobarin, tarixiy janglar haqida yoki uning ta'sirida yaratilgan «To'maris», «Shiroq», «Guldursun» kabi rivoyatlar bunga misol bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, ayrim tadqiqotlarda, o'rta maktab darsliklarida bu asarlar afsona namunasi sifatida o'rganib kelinmoqda. Holbuki, ular rivoyat ianriga mansub bo'lib, real tarixiy, voqelik va real tarixiy shaxslarga oid ma'lumotlarni tashiydi.

So'z san'atining dastlabki na'munalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Uning tashkil topishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush darajalari, dunyoqarash va tushunchalari hal qiluvchi rol o'ynagan. Eng avvalo og'zaki nasriy turning dastlabki na'munalari vujudga kelgan. Ular nihoyatda sodda bo'lib, turli xildagi undov-xitoblar va voqealar bayonidan iborat bo'lgan. Mehnat jarayoni hamda ongning rivojlanishi voqea va hodisalar talqinida oddiy bayondan obrazli tasvirlashga olib keldi. Sodda va takroriy jumlalar badiiy til vositalari bilan boyiy boshlagan.

Porloq kelajakni orzu qilib, unga umid ko'zi bilan boqqan uzoq o'tmishtagi avlod-ajdodlarimiz kishilarning qudratli rivojini oldindan sezib, ularning qobiliyatlarini ideallashtirgan mifologik obrazlarni yaratgan. Ana shu mifologik obrazlarning ilk bor namunalari ko'hna, mif, afsonalarida naql etildi. Qadimgi davr folklor namunalari ichida mifologik tasavvurlar asosida yaratilgan afsonalar va miflar alohida o'rin tutadi.

Mif grekcha so'z bo'lib, xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima afsonadir. Mifologiya iptidoiy insonning tabiatini bilishga intilishning natijasi hisoblanadi. Olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlar ana shu tarzda yuzaga kelgan bo'lib, u o'z navbatida osmon, oy, quyosh hamda turli xil hayvonlar g'ayritabiiy tasvirlangan pahlovonlar haqida miflarni hosil qildi. Mazkur miflar kishilarga ruhiy kuch, tetiklik va osoyishtalik baxsh etgan, nihoyat, insoniyatni g'alabaga chorlagan, qadimgi ertaklar, afsona, miflarning asosiyligi oyasini qadimgi davrlardagi mehnat kishilarining yukini yengillashtirishga, ishning umumini oshirishga, to'rt oyog'li va ikki oyog'li dushmanlarga qarshi qurollanishlariga hamda so'z kuchi-“avrash”,

“afsun”, yo‘li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo‘lgan hodisalariga ta’sir etishlariga qaratilgan.

Ko‘rinadiki mif zo‘r kuch va qudrat, osoyishta yashash hamda yozuv kuch ustidan g‘alaba qila olish haqidagi orzu umidning in’ikosidir. “Kishilar yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlikni yomonlik, baxsizlik, zulmat va daxshatl sovuqqa qarama-qarshi qo‘yib, baxt o‘lkasi va baxsizlik o‘lkasi degan miflarni yaratganlar. Go‘yo tabiatda ulug‘ va foydali kuchlar-quyosh va suv abadiy bo‘lgan o‘lka, hamda ofat keltiruvchi kuchlar-zulmat va kulfat adabiy bo‘lgan o‘lka bor emish. Ko‘pchilik obrazlar mana shu ikki o‘lka va ular o‘rtasidagi kurash fanida gavdalanadi”<sup>6</sup> qahramonlarning shakllanishida asosiy zamin vazifasini o‘tadi. Bunday qahramonlar mifologik obraz singari tabiat yovuzliklariga emas, balki ijtimoiy tuzum yaramasliklari, zulm va zo‘rlikka nisbatan qarshi chiqadi. Uning mazmuni ijtimoiy g‘oyalar ta’sirida chuqurlashdi va o‘tkirlashdi. Xullas dastlabki vaqtida tabiatning sirli kuchlarini ifodalab, keyinchalik ijtimoiy xususiyat kasb etgan va tarixiy kuchlarni namoyondasiga aylangan fantastik obrazlar rivojlanib, vatanparvarlik va qahramonlikni madh etuvchi obrazlar darajasiga yetdi. Ana shunday obrazlar **To‘maris, Shiroq, Zarina, Rustam va Siyovush** kabi epik qahramonlar misolida shakllandı. Jangnoma tipidagi epik asarlar, asosan tarixiy vaqeа va hodisalar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

O‘zbek mifologiyasidagi obrazlar tizimi, ayniqsa, yaratuvchi qahramonlar, dimiurglar, qahramon titanlar haqidagi tasavvurlar badiiy tafakkur taraqqiyoti davomida xalq dostonlaridagi epik qahramonlar, bahodirlar obrazining shakllanishida muhim rol o‘ynagan, hatto birlamchi asos vazifasini bajargan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. miflar ajdodlarimizning ma’naviy madaniyati yodgorliklari sifatida badiiy-estetik zavq berish orqali yashashda davom etmoqda. Afsona janrining shakllanishi va taraqqiyotida miflik semantik asos, o‘zak vazifasini o‘taganligini e’tirof etgan folklorshunos olim M.Jo‘rayev ham o‘zbek xalq afsonalarining yuzaga kelishiga zamin bo‘lgan manbalar hamda tadrijiy taraqqiyot bosqichlari "hayotiy voqelik- mif afsona" tarzida ekanligini ko‘rsatadi<sup>7</sup>

<sup>6</sup> Jo‘rayev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari. O‘T va A. 1996, №5 -B. 31.

<sup>7</sup> Jo‘rayev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari. O‘T va A. 1996, №5 -B. 32.

## **1.2. Afsonalarni tahlil qilish usullari**

“O‘quv tahlili o‘quvchi yoki talabalarda asar mohiyatini anglashga xizmat qiladigan miqdordagi badiiy bilim va ko‘nikmalar shakllantirish orqali ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga yo‘naltirilgan jamoa shaklidagi *estetik-pedagogik faoliyatdir*. O‘quv tahlili mobaynida o‘qituvchi yoki professor hamisha o‘quvchi yoxud talabalar bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatadi. Bunda ular asarni tanlash imkoniga ega emas (dasturga amal qilinadi). Shuningdek, o‘quv tahlili joy (auditoriya yoki sinf) va vaqt (bir dars yoki uning qismi) jihatidan ham cheklangan bo‘ladi. Tahlil asnosida o‘quvchilarningyosh va intellektual darajasi hisobga olinishida namoyon bo‘ladigan intellektual ma’naviy chegara ham mavjud. Shu jihatdan o‘quv tahlilini amalga oshirish filologik tahlilga nisbatan murakkabroqdir”<sup>8</sup>. Ta’lim bosqichlarida amalga oshiriladigan didaktik tahlilbadiiy tahlilning og‘zaki shaklida namoyon bo‘ladi.

Badiiy tahlil “ilmiy-estetik jarayon” bo‘lgani bois u muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi:

*Birinchi bosqich* – badiiy tahlilga tayyorlanish bosqichibo‘lib, bunda badiiy asar yaxlit butunlik sifatida o‘qib o‘rganiladi, tahlil qilinishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlar, e’tiborli nuqtalar belgilab olinadi.

*Ikkinci bosqich* – badiiy matn ustida ishslash jarayoni bo‘lib, bunda asar “alohida elementlari” bo‘yicha jiddiy tahlilga tortiladi. Adabiy matnning “jozibadorligini ta’milagan estetik omillar: timsollar tizimi, personajlar ruhiyatini ko‘rsatishda qo‘llanilgan usullar, ifoda tarzidagi o‘ziga xoslik, til xususiyatlari singari jihatlar tekshiriladi”.

*Uchinchi bosqich* – umumlashtirish, alohida olingan qismlarni birlashtirishdan iborat bo‘lib, bunda tahlil yuzasidan yakunlovchi xulosaga kelinadi. Ijodkor mahoratiga munosabat bildiriladi. Tahlil qilinayotgan asarning ijodkor adabiy faoliyatidagi va “milliy badiiy tafakkur taraqqiyotidagi” o‘rni

---

<sup>8</sup>Қ.Йўлдошев. Моҳиятни англатиш йўли. \“Шарқ ўлдузи”. Т., 2010, 159- 6.

hamda ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati yuzasidan umumiy xulosa qilinadi. Akademik litsey ta’lim tizmida tahlilning mazkur bosqichlarigato‘liq amal qilishga erishish lozim. Ana shunda didaktik tahlildan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlar samarali amalga oshadi, o‘quvchilarning adabiy tahlil malakasi takomillashadi.

Biroq, ba’zi hollarda adabiy ta’lim imkoniyatlari bunday tugal tahlillarga keng yo‘l berolmaydi. Ta’lim jarayonida, didaktik tahlilda badiiy asar tahlilining har uchala bosqichini birvarakayiga amalga oshirishning imkoniyati chegaralangan. Chunki, akademik litsey ta’limida ham boshqa ta’lim bosqichlari (umumiy o‘rtta maktab, kasb-hunar kollejlari)da bo‘lgani kabi “badiiy asarning barcha qismlari birdaniga emas, balki mazkur bosqich uchun eng muhim hisoblangan tomonlarigina tahlilga tortiladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va dunyoqarashi, umumiy adabiy tayyorgarligi nazarda tutiladi. Uchinchidan esa, vaqt imkoniyatlarining qat’iy chegarasi ham shuni taqozo etadi”. Demak, mazkur omillar adabiy ta’limda badiiy tahlilning yaxlitlik tamoyili talablarini to‘la bajarishda ham bir qadar qiyinchiliklar keltirib chiqarishi tabiiy. SHunga ko‘ra, mazkur masalalar borasida biz badiiy tahlilning yaxlitlik tamoyili tasnifida batafsilroq to‘xtalamiz. Ammo, shu o‘rinda aytish kerakki, o‘qituvchining o‘zi badiiy tahlil bosqichlariga tegishli ilmiy-estetik jarayonni har doim diqqat markazida tutib, ular o‘rtasidagi uyg‘unlik va uzviylikni saqlab qolishga harakat qilsa, o‘rganilayotgan asarlar tahlili uchun ulardan qay biri ustuvor bo‘lishini qat’iy belgilab olsa va keyingilaridan yordamchi vosita sifatida foydalansa, albatta tahlil samaradorligini oshirishga erishadi. Bunda, masalan, hajman katta bo‘lgan epik yoki dramatik asarlarning darslikdan tashqaridagi to‘liq nashr variantini o‘quvchilarning o‘ziga o‘qib kelishni topshirishi mumkin. Demak, tahlilga tortiladigan badiiy asarni o‘qib-o‘rganish jarayonida o‘quvchi uni “yaxlit butunlik sifatida idrok etadi”, asarning asosiy mazmuni, uning badiiy g‘oyasi, asosiy obrazlari bilan dastlabki tanishuv amalga oshadi. Shu taxlit ikkinchi bosqichdagi vazifalarning ijobiyligi hal etilishiga zamin hozirlanadi. Shuningdek, tahlilning yakunlovchi boqichiga ham yetib borish, o‘rganilayotgan asar yuzasidan

umumlashtiruvchi xulosalarchiqarish imkoniyati ham yuzaga kelishi mumkin. Adabiy ta’limda badiiy asar tahlilini bosqichma bosqich, to‘laligicha amalga oshirishning imkonи bo‘lmasada, unda o‘quvchilarni badiiy-estetik tafakkur qonuniyatlar, ijodkorning o‘ziga xos uslubini namoyon qiluvchi tasvir ifodalari, asarning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati xususidagi bir qadar ma’lumotlar bilan tanishtirish, har bir asarga alohida estetik hodisa sifatida munosabatda bo‘lish malakalarini shakllantirish va mustahkamlash, shu asosda esa o‘quvchilar ma’naviy olamini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlar mavjud. Bunday samarali faoliyat esa adabiyot o‘qituvchisining bilimdonligi, zukkoligi, bugungi zamонавиу texnologiyalardan unumli foydalana olishi, metodik tajribasi bilan chambarchas bog‘liq.

Badiiy asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat’i nazar, uning mohiyatida inson shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgangan bir qator didaktik xususiyatlar, estetik tamoyillar mujassamlashgan bo‘ladi. “Badiiy asarning eng muhim xususiyati shundaki, u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg‘ularini o‘tkirlashtiradi, ma’naviy-ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi”<sup>9</sup>.

Shunga ko‘ra, badiiy asar tahlili o‘quvchi ma’naviyatini boyituvchi, uning nafosat olamini, his-tuyg‘ularini tarbiyalovchi, ruhiy-axloqiy kamolotini ta’minlovchi mustahkam omillardan biri hisoblanadi.

O‘quv tahlili tamoyillari talabini to‘la qonli bajarishda tahlilga tortilayotgan asarlarning tur va janr xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tahlil avvalida o‘rganilayotgan badiiy matnning adabiy tur xususiyatlari, janr imkoniyatlari e’tiborga olinadi. Shunga ko‘ra lirk asarlarni o‘rganishda qo‘llanilgan usullarni aynan qo‘llab, epik yoki dramatik asarlarni tahlilga tortishning iloji yo‘q. Har bir tur o‘z estetik mohiyati, badiiy qonuniyatlariga ko‘ra tahlil usullari va tamoyillariga tayangan o‘zgacha yondashuvlar, o‘ziga xos

---

<sup>9</sup>А.Расулов. Танқид, талқин, баҳолаш. -Т.: “Фан”, 2006, 16-б.

munosabatni talab qiladi. Asarning badiiy tabiatida tur xususiyatlari muhim o‘rin tutar ekan, demak, tahlilda ham ana shu o‘ziga xoslik qat’iy saqlanadi.

Badiiy adabiyot o‘zining tur va janr imkoniyatlari bilan shu qadar rang-baranglik kasb etadiki, uning qa’riga qanchalik chuqur sho‘ng‘isang, shunchalik ko‘p ma’no-mohiyat durlarini qo‘lga kiritasan. Adabiy matn turlari yoki janr xususiyatlari o‘zgarib borgan sayin ta’limiy tahlil tamoyillarining talablari hamisha o‘zgarmasligini, bunda faqat tahlil usullari yoki munosabat ayricha tus olishi mumkinligini unutmaslik lozim. Masalan, o‘quv tahlilining yaxlitlik, tizimlilik, emotsiyonallik, individuallik, tarixiylik, mazmundan shakl sari borish, mukammal va tugal tahlilning bo‘lmasligi, pedagogik maqsadning ustuvorligi singari barcha tamoyillari lirik asarlar tahlili uchun ham, epik va dramatik asarlarni o‘rganish uchun ham qat’iy talab bo‘lib qolaveradi. Bunda faqat asarning tur va janr xususiyatiga qarab talqiniy yondashuv o‘zgacha bo‘lishi, tahlil usullari o‘zgarishi, o‘ziga xos metodlarni talab qilishi mumkin. Kichkina hikoya to‘liq hajmda o‘qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchingisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tahlil qilib qisqacha hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o‘quvchilarning badiiy o‘qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfga o‘qituvchining o‘zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko‘zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi”<sup>10</sup>. Ko‘rinadiki, asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Badiiy matn tahlilida uning tur va janriga xos jihatlarni e’tiborga olib o‘rganish, shu asarning o‘ziga xos takrorlanmas badiiy-estetik mohiyatini to‘la anglashga imkon beradi, hissiy ta’sirchanlikni oshirishga turtki bo‘ladi.

---

<sup>10</sup>ТўхлиевБ. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т., Алишер Навоий номидаги ЎзМК нашриёти. 2010 ,68-6.

To‘maris boshliq massagetlar qattiq jangga kirib, Kir qo‘sini yengiladilar, uning o‘zini o‘ldiradilar. To‘maris Kirning boshini qon bilan to‘lg‘azilgan meshga solar ekan, o‘z kurashiga yakun yasab” ey nomard, sen meni-jangda seni hallolik bilan yengib chiqqan bir ayolni-makkorlik bilan o‘g‘lidan judo qilib farzand dog‘ida kuydirding, sen umring bo‘yi qonga to‘ymading, men o‘z ontimga amal qilib seni qon bilan sug‘ordim. Birovning yurtiga zo‘rovonlik bilan bostirib kirkanning jazosi shu!-deydi. To‘marisning keyngi so‘zlari eposning g‘oyasiga yakun yasaydi, bosqinchilarga qarshi halqning qat’iy hukumini ifodalaydi.

Xerodot, Kteziy va boshqa tarixchilar O‘rta Osiyo qabilalarida, jumladan, massagetlarda ijtimoiy hayotning turli sohalarida xotin-qizlarning katta o‘rin tutganligini so‘zlaydilar. Shuningdek, Xitoy sayyohi Chjan Syan (yeramizdan avvalgi II asr) Dovon (Farg‘ona) dagi xotin-qizlarning mavqeい haqida so‘zlab, “Yerkaklar biror qaror qabul qilar ekanlar, ular o‘z xotinlarining maslahatiga qulqolar edilar”-deydi.

“To‘maris” afsonasining yangi adabiyotlarda talqin qilinishida Mirkarim Osim, Tog‘ay Murod singari yozuvchilarimiz o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bular orqali adabiyot sahifalarida To‘maris, Shiroq, Alp Er To‘nga, Siyovush va Rustamning jasoratlari haqida afsonalar o‘z kitobxonlarini topdi. Mirkarim Osim ijod yo‘li davomida tarix zarvaraqlarida afsona bo‘lib kelayotgan nodir asarlarni yanada jonlantirib, kitobxonlar qalbidan joy oldi. Endi “To‘maris” afsonasiga keladigan bo‘lsak, afsona qadimgi Eron va Turon davlatlariga tegishli joylarda bo‘lib o‘tgan. Bundan 2700 yil oldin buyuk bobolarimiz “sak” lar davlatini qurbanlar. “Saklar” Rossiyada “Skiflar”, G‘arbiy Yevropada “Skitlar” nomi bilan tanilgan. “Saklar” yoki “shaklar” ham deb yuritiladi. Bu davlat Xitoydan Dunay daryosigacha cho‘zilgan bo‘lib, ahmoniyalar podsholigidagi turkiy xalqlarning birinchi davlat uyushmasi edi. Massagetlar qabilasi Kasbiy dengizning sharqda yashaganlar. Massagetlarni To‘maris ismiali mard, jasur ayol boshqarar edi. Tarix kitoblarida To‘maris nomi Natan Mallayevning yozishicha, “To‘maris”, “To‘marisa” deb atalsa, boshqa adabiyotlarda uni, “To‘maris”, “Tomaris”,

“Tamiris” va “tamirida” deb ataladi. “To‘maris” so‘zidagi “is” yunonlar qo‘s shgan qo‘s himcha. So‘zning asli o‘zagi “Temir”dan deydilar ayrim olimlar. Chunki, otabobolarimiz bundan 400 yil oldin temirdan foydalanishgan ekanlar.

To‘marisning jasorati, to‘la ibrati haqida XX asrda adabiyotimizda ayrim asarlar paydo bo‘ldi. Shulardan biri yozuvchi Mirkarim Osimning “Jayxun ustida bulutlar” nomli asaridan o‘rin olgan “To‘maris” afsonasidir. Bu asarda ona-Vatanimizda bundan 2500 yil oldin yuz bergen qonli voqealar va dushmanga hech qachon bo‘yin egmagan ajdodlarimiz hayoti hikoyada qiziqarli voqealar, badiiy to‘qimalar asosida, tasviriy manzaralar orqali tasvirlab berilgan. Mirkarim Osimning “To‘maris” hikoyasi bilan Xerodotning shu afsona haqidagi hikoyasi o‘rtasidagi farqni sezamiz. Masalan: Xerodot bergen hikoyada To‘marisning o‘g‘li Sparangiz urushda halok bo‘ladi. O‘g‘lidan o‘ch olish uchun farzand dog‘ida ado bo‘lgan To‘maris Eron shoxi Kir bilan urushadi va yengiladi, deyilgan bo‘lsa, Mirkarim Osim hikoyasida esa, To‘maris o‘g‘lini shak urug‘idan bo‘lgan Zarinaga uylantiradi va erining bevaqt o‘lganidan va beva qolgan Zarina o‘ch olish maqsadida qaynonasi To‘maris bilan jang olib boradi-degan misollar ko‘zga tashlanadi. Demak, Gerodat hikoyasida Zarina ismli ayol bo‘lмаган. Zarina ismli ayol- “O‘zbek adabiyoti tarixi” asarida keltirilishicha tarixchi Diodor (yeramizdan avvalgi 1 asr)ning “Kutubxona” asarida tarixchi Kteziy (430-354) kitobidagi bayon asosida hikoya qilib qoldirilgan “Zarina va Strangiya” qissasidadir. Lekin bir tomonidan Mirkarim Osimning ham keltirilgan fikrlarini yolg‘on deyolmaymiz. Chunki, ijodkor bir nimaga ishonmasa, qog‘ozga tushurmaydi. Uning yozishicha: “Xotin-qizlarning erkaklar bilan yonma-yon jang qilishlari kelin bilan kuyovni to‘y oldidan kurashtirib ko‘rishlari saklar hayotiga doir xalq og‘zaki ijodi namunalarida saqlanib qolgan.

Yozuvchi bu ma’lumotlarni sinchiklab o‘rganib chiqqan va ularga suyanib, qadim tarixiy voqealarni ko‘z oldimizda jonlantirgan va shu asarda o‘sha davr urfodatlarini Sparangiz va Zarinaning to‘ylari orqali ko‘rsatib, aks ettirib bergen. Zarina ismni tanlashi ham bejiz emas, albatta. Chunki tarixda bunday jasur,

dovyurak ayol bo‘lgan. Shuning uchun ham yozuvchi bu qahramonni o‘z asariga tanlagan. Hikoyada shiddatli voqealar yuz bergan sahro manzillari, uzoq payt esda saqlanib qoladi. Sparangiz bilan Zarinaning to‘y kuni kurashga tushishi voqealari, qadim-qadimdan bizgacha yetib kelayotgan urf-odatlarni anglashga yordam beradi. Xiyla bilan asirga olingan Sparangizning nomusiga chidayolmay o‘zini o‘zi halok etishi, qalbimizda g‘urur va mehr uyg‘otadi. Nihoyat, dushmanning yengilib, adolatning qaror topishidan quvonib ketamiz. Beihtiyor jasorat va qahramonliklarga to‘la xalqimiz tarixining yunon, arab, mo‘ng‘il, rus istelochilariga qarshi kurash sahifalari esingizga tushadi. O‘quvchilarga maktablarda “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarini o‘qitish, ularni hayotga tadbiq qilgan holda o‘rgatish, ular ongida vatanga, ona-yurtga bo‘lgan sadoqat tuyg‘ularini shakillantirishda maktab bilan hamkorlikda ish olib boradigan jamoalar, oila, mahallalardan kelib chiqqan holda o‘rgatish, To‘maris ham, Shiroq ham xaq qahramoni sifatida asrdan asrlarga o‘tib, ularga tayanib kelmoqda, mard-jasur shaxslar deb o‘quvchilar ongiga singdiribbormoqdamiz. Lekin o‘quvchiga mana shunday qahramonlar hayotimizda ham uchrab turganini, faqat ularni afsonalarda emas, hayotimizda ham uchratishimiz mumkinligini tushuntirsak foydadan holi bo‘lmaydi. Endi hayotni tarix bilan bog‘laydigan bo‘lsak, mana shu mustaqillikka erishganimizgacha boshimizdan o‘tkazgan voqealar mustaqillik deb jonini fido qilganlarini mana shu To‘maris, Shiroqlarga qiyos qilolmaymizmi? Masalan: 30-yillar “qatag‘on qurbanlari” qahramon qo‘liga qurol olib jang qilishi, yoki unda shahid ketishi degan emas-ki. O‘sha qo‘liga qurol olmasdan ham mustaqillik uchun kurashgan buyuk siymolarimizdan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Fitratlar xalq qahramonlari emasmi? Kim ularni qahramon emas deya oladi, axir ular ham qalam bilan dushmanlarga hujum qildiku! “O‘tgan kunlar”, “Baxtsiz kuyov”, “Mehrobdan chayon” va haqozolar misol bo‘la oladi. Mana bular orqali kurashimiz mumkin. Cho‘lponning:

Kishan kiyma,

Bo‘yin egma,

Ki sen ham hur tug‘ilg‘onsan.

Degan dardli sardorlari Shiroqlarning madlik suroniga, ozodlik suroniga o‘xshab ketmaydimi? Uzoqqa bormaylik, hali dog‘i yuragimizdan o‘chmagan 1999 yil 16-fevral vahimalariga bir nazar tashlaylik. Undagi qonlari begunoh to‘kilgan, Vatan himoyachilarimiz jasorati qaysi Shiroq yoki To‘marisning jasoratlaridan qolishadi. Axir unda qancha harbiyalarimiz, begunoh odamlarimiz jonlarini qurban qiladilar. Men afsona qahramoni Kayxsiravni (Kir) terrorchilarga, To‘maris va Shiroqni esa Vatan himoyachilariga o‘xshataman, biri salbiy qonho‘r bo‘lsa, ikkinchisi ijobiy vatanparvar, ona-yurt himoyachilaridan. Afsuski, jirkanch, yovuz kimsalarning yovuz tajovuzlarini deb qanchadan-qancha o‘zbek xalqi yosh, navqiron o‘g‘lonlardan ajraldi. Ular bizni deb, farzandlarini deb jonini fido qilishdi

Agar olma daraxtini misol qilsak, olma daraxtining o‘zi ham olma, mevasi ham olma, bargi ham olma, shohlari ham olma. Demak, Shiroq, To‘maris, Abdulla Qodiriylar, terrorchilarga qarshi kurashib halok bo‘lgan, hali o‘n gulidan bir guli ochilmagan o‘g‘lonlar, Birinchi Prezidentimiz, mustaqillik uchun, yovuz terrorchilar uchun kurashgan xalq qahramonlarining o‘zлari bir jasorat, qilgan ishlari bir jasorat, aytgan gaplari bir jasorat, yozgan o‘tli satrlari-yu, ko‘rsatgan qurollari, qilgan ishlari bir jasorat. Birinchi Prezidentimizning mana bu fikrlari gapimiz isboti bo‘la oladi. “Har qanday tajovuz va terrorchilik xurujlarining oldini olish, ularning mafkuraviy zaminini yo‘qotish va avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog‘lom tafakkuri uchun kurashni taqozo etmoqda. Yurtimiz tinchligiga, bolalarimiz va ayollarimiz, keksalarimizning osoyishta hayotiga kimki tajavuz qilgan bo‘lsa, muqarrar o‘z jazosini olib kelgan va bu safar ham shunday bo‘ladi. Jinoyatchilar amaldagi qonunlarimiz, xalqaro xuquqiy normalar asosida sud oldida javob beradi”<sup>11</sup>.

“Shuning uchun ham: “Ogoh bo‘ling, odamlar!”-degan da’vat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak. Faxrlanish mumkin va lozim bo‘lgan beba ho qadriyatlar-o‘z mustaqilligimizni, tinchligimizni jamiyatda millatlar va fuqorolar

---

<sup>11</sup> Каримов И. Xalq so‘zi” gazetasi. 2004 yil. 30 aprel.

o‘rtasidagi totuvlikni asrang. O‘z erkimizni qanday tasarruf etish, uni bugungi murakkab va ba’zan shafqatsiz dunyodagi haddan ziyod havf-xatarlardan saqlash har birimizga bog‘liqdir”.<sup>12</sup> Bu misollar, bu xaqiqatlar orqali o‘quvchilar ongida shuurida vatanga bo‘lgan muhabbat, ona yurtga bo‘lgan sadoqat o‘z-o‘zidan uyg‘onmaydi deb kim kafolat beroladi. Bu o‘z-o‘zidan Vatan uchun jon beruvchi o‘g‘lonlar mana man deb qad ko‘tarishi aniq.

## **2.2. Mirkarim Osimning tarixiy asar yaratish mahorati**

Mirkarim Osimning “Aljabrning tug‘ilishi”, “To‘maris”, “Shiroq”, “Iskandar va Spitamen”, “Temur Malik”, “Jayhun ustida bulutlar”, “O‘tror”, “Zulmat ichra nur”, “Ibn Sino qissasi” “Singan setor”, “Nur va zulmat”, “Mohlar oyim va Xonposhsha”, Asad Dilmurodning “Sherdor”, “Mulk”, “Girih”, “Intiho” qissalari, “Mahmud Torobiy”, “Fano dashtidagi qush”, “Pahlavon Muhammad” romanlarini shu mavzuda yozilgan e’tiborli asarlardir. Bu qissalar badiiy jihatdan birdek darajada bo‘lmasa-da, o‘tmish voqeligi va tarixiy qahramonlarimiz haqida jonli, hayotiy lavhalar, manzaralar yaratilishiga ko‘ra o‘ziga xos badiiy qimmatga, estetik ahamiyatga ega. Yo‘qorida zikr etilgan qissalarda Narshaxiy, Muhammad Nasaviy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurazzoq Samarcandiy, Sharaffiddin Ali Yazdiy va boshqa tarixchi olimlar asarlardagi hikmatlar, ma’lumotlar, lavhalar hamda xalq og‘zaki ijodidagi syujetlar material bo‘lib xizmat qilgan.

O‘tmish ma’daniyatimizning yorug‘ yulduzлари, yurting jasur himoyachilar haqida asarlar yozish an’anasini, birinchi bo‘lib, qissa janrlarida Mirkarim Osim boshlab berdi. U tarixiy shaxslarning murakkab hayot yo‘li haqida uzoq izlanishlar natijasi o‘laroq, ko‘plab tarixiy qahramonlik mavzusidagi asarlar yaratdi; keying yillar o‘zbek prozassi rivojiga munosib xissa qo‘shdi. Adibning maqsadi yosh nasllarni o‘z ajdodlari o‘tmishidan xabardor etish edi. Shuning uchun u, dastlab maktab o‘qituvchilari uchun tarix fani yuzasidan ko‘pgina qo‘llanmalar yaratdi.

---

<sup>12</sup> Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. -Т.1997 yil. 106ет.

So'ngra tarixiy mavzuda e'tiborlik ocherklar yoza boshladi. Adib butun ijodiy faoliyati davomida faqat tarixiy asarlar yozdi; xalqimizning olis o'tmishdagi bizga noma'lum hayot manzaralarini ravshan yoritib berdi. Yozuvchi o'z asarlariga qahramon qilib olgan Shiroq, To'maris, Spitamen, Temur Malik, Abu Abdullo Ibn Muhammad Ibn Muso al - Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Mashrab kabi buyuk siymolar obrazni bugungi o'zbek adabiyotining eng yorug' sahifalariga, obrazlari sistemasida buyuk qahramonlarga aylanib qolgan. Bu asarlarning ma'naviy – ma'rifiy, ijtimoiy- axloqiy ahamiyati beqiyosdir.

Keying paytda tarixni o'rganish uchun keng yo'llar ochilgani bois sermiqiyos va serqatlam moziyni badiiy o'zlashtirish ham ancha kengaydi. Uning o'ziga xos shakllari paydo bo'la boshladi. Ana shunday izlanishlardan biri xalq og'zaki ijodi, rivoyat va afsonalar syujeti asosida yaratilgan rivoyat qissalardir. Bunday asarlar ko'proq, xalq og'zaki ijodi na'munalaridagi yarim afsonaviy, romantik qahramonlarni eslatuvchi shartli personajlar sarguzashtlariga asoslanadi. Shunga ko'ra syujetda ma'lum shartlilik, bo'rttirish, og'zaki ijod elementlari, rivoyatomuz voqealar uchraydi.

Xalq og'zaki ijodidagi To'maris va Shiroq afsonalarining asli bizga yetib kelmagan. Ularning mazmuni grek tarixchilaridan, Xerodotning "Tarix" va Poliyenning "Harbiy hiylalar" kitobida, shuningdek, "Avesto"da hikoya qilib qoldirilgan.

To'maris afsonasida Massaget qabilalarining, Shiroq afsonasida esa Sak qabilalarining bosqinchi yovlarga qarshi kurashi aniq, yorqin ko'rsatib berilgan. Bu qabilalarning tadbirkorligiga, jasur va mardligiga alohida e'tibor qaratilgan. Mana shuning o'ziyoq, har ikkala afsonaning ham Turonda yashovchi donishmand xalqimiz tomonidan yaratilganini isbotlab turibdi.

Mirkarim Osim shu materiallar asosida "Shiroq"<sup>1</sup>va "To'maris"<sup>2</sup> qissalarini yaratdi. Har ikkala asarda ham ajdodlarimizning vatanparvarlik, yovlarga qarshi ko'rashda ko'rsatgan qahramonligi. Jangu jadal sahifalari aks ettirilgan.

---

<sup>1</sup> Mirkarim.O. "Shiroq" qisa. Toshkent. 1955

<sup>2</sup> Mirkarim.O. Ajdodlarimiz fojeasi. Tarixiy qissalar. Toshkent. 1983

“To‘maris” qissasi syujetini qadimgi Turonda yashagan Sak va Massaget qabilalarining hukmdorlaridan biri To‘marisning bosqinchi Eron shohi Kayxusravga qarshi olib borgan qahramonlik ko‘rashi tashkil etadi. Yozuvchi tarixiy faktlarga jon baxsh etib, ezgu tilakli xalqning matonati, psixalogiyasini, qahramonligi tabiatini badiiy vositalar yordamida tasavvur qilishimizga imkon yaratadi. Muallif asar qahramoni To‘marisni bir so‘zli, mard va nihoyada shiddatkor sarkarda sifatida tasvirlaydi. shaxsiy baxti va huzur - halov–tidan ko‘ra o‘z xalqining baxt – saodatini, tinchligi va osoyishtaligi uchun jonfidokorlikni afzal ko‘radi. Eron shohi Kayxusrav jo‘natgan elchining: “Men yolg‘iz elchi emas, sovchi ham bo‘lib keldim. Shahanshoi olam senga g‘oyibona oshiq bo‘lganlar”, degan gapiga, “ Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo‘lgandir”, deydi To‘maris zaxarxanda qilib. “Men emas, shu serbaraka yurtim unga kerak bo‘lib qolgan. Siz, elchi janoblari, o‘z tojdoringizga borib ayting: Men uning taklifini qat’ian rad etaman. Men unga qalliq bo‘lishni, o‘z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman” deb javob beradi. To‘maris bu gapi bilan Vatanining daxlsizligini, xalqining erki va mustaqilligini saqlash bosh a’moli ekanligini uqtiradi.

Bunday yovqur javobni kutmagan Kayxisrav fig‘onidan tutun chiqib ketadi. Shoh sha’niga nomunosib nomardlik yo‘lini tanlaydi. U hiyla ishlatib, To‘maris lashkarlarini qo‘lga oladi. Ular orasida To‘marisning o‘g‘li Sparangiz (ba’zi manbalarda Sparangiz) ham bor edi. O‘zining hiyla bilan qo‘lga tushganini sezgan Sparangiz kishanni yechishni so‘raydi. Grek tarixchisi Xerodot “Tarix” kitobida yozishiga ko‘ra, Sparangiz qo‘li yechilgan zahoti o‘zini – o‘zi o‘ldiradi. Mirkarim Osim mazkur tarixiy faktni badiylashtiradi. Qissaga quyidagi tahlitda singdirib yuboradi: “ Qo‘limni yechib qo‘yinglar, - deb iltimos qildi u. Kayxisrav bir mulozimiga ishora qilgan edi, u yugurib kelib yigitning qo‘lini yechdi-da, o‘z joyiga borib turdi. Shu on Sparangiz qo‘ynidan kichkinagina yaltiroq pichoq olib, o‘zining ko‘ksiga sanchdi-yu, mukka tushib jon taslim qildi. “Mard yigit ekan, - dedi Kayxisrav bir ozdan keyin. – o‘limni nomusdan afzal ko‘rdi”.

Sparangiz o‘limidan xabar topgan To‘maris va barcha massagetlar yuragini g‘azab, nafrat alangasi qoplaydi. To‘maris yurt boshiga tushgan bu kulfatlarni daf etish uchun jangga kirar ekan, lashkarlariga murojat qiladi: “ Opa - singillar , aka – ukalar qayerga ketayotganingizni hammangiz yaxshi bilasiz. Shu ketganimizcha, yo hammamiz bitta qolgunimizcha qirilib, o‘z qonimiz bilan sha’nimizga tushgan dog‘ni yuvib tashlaymiz, yoki dushmanni qirib yuborib, g‘alaba bilan qaytamiz. Eron shohi oldida tiz cho‘kadigan nomard yo‘q. Biz albatta yengamiz! Shafqatsizlikni bizlardan ko‘rsin Eron shohi”.

To‘maris qo‘sishnlari ayovsiz jangda g‘alaba qozonadi.Katta yo‘qotishlar, qurbanlar evaziga o‘z yurtini Eron lashkarlari bosqinidan saqlab qoladi. Muallif tarixiy voqealarga badiiylik baxsh etar ekan, ularga muhim ijtimoiy ahamiyatli ma’nolar yuklaydi. G‘alaba misolida o‘quvchi ongini, ko‘nglini tarbiyalashga alohida urg‘u beradi. Kitobxon qalbiga zulmga, yovuzlikka, bosqinchilikka qarshi nafrat, vatanparvarlik, ozodlik va adolatga muhabbat tuyg‘ularini alangalatadi.

Qissadagi yirik tarixiy shaxslardan yana biri ahmoniyilar davlatning asoschisi Kayxisrav obrazidir.

Asarni o‘qir ekanmiz, bugungi kun sarxadlarida turib, o‘sha olis tariximizning uzoq sahifalariga nazar tashlaymiz. Ulardan bugungi kuminiz uchum ma’naviy – intelektual quvvat, madad olamiz. Qirg‘inbarot urushlar, son – sanoqsiz odamlarning qul qilib haydab ketilishi, ayollar dod – faryodi, norasida bolalarning itlar oldiga tiriklayin tashlangani, qutirgan itlarning ojiz, himoyasiz bolalarning zanjirband ota – onalari ko‘zi o‘ngida g‘ajishi, burda – burda tilkalashi naqadar achinarli va qayg‘uli. Mana shu xil tarixiy faktlardan tegishli xulosa chiqargan yozuvchi Kayxusravni asarda tajavvuzkor, qonxo‘r va ayni paytda, nomard shaxs sifatida tasvirlaydi: “ Eron shohi ko‘pni ko‘rgan keksa jangchining makr – hiyladan iborat bo‘lgan rejasini zavq bilan tinglab o‘tirdi. Soddadil massagetlar daryodan o‘tishimizga monelik qilmay, mardlik ko‘rsatdi-yu bizlar hiyla ishlatib nomardlik qilamizmi”, degan fikr ko‘nglining ko‘chasiga hamkelmadi. Iroq va Misrni, O‘rta Osiyoning janubiy qismini quril va oltin, makr

– hiyla bilan bosib olib, buyuk Eron davlatini barpo etgan bu shuhratparast shoh, maqsadiga erishish yo‘lida har qanaqa nomardlikdan tap tortmasdi.

Asardagi Zarina obrazi badiiy to‘qima mahsuli. U bosh qahramon To‘maris qiyofasini, jasoratning mohiyati va tabiatini ayonlashtiradi. Xususan xarakter mantig‘ini ta’minlashga, badiiy dalillashga yordam beradi.

Qissa ajdodlarimizning yurtimizga ko‘z tikan yovlarga qarshi qahramona kurashlarini aks ettiruvchi yorqin asar sifatida, ayniqsa, bugungi milliy mustaqillik sharoitida kata tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Yurtimiz dushmanlariga, bosqinchilarga qarshi kurash, o‘tmishda kechgan jang – jadallar “Shiroq” tarixiy qissasining ham qahramonlik yo‘nalishini, mazmun –mohiyatini belgilab bergan.Qissada o‘z xalqini, kindik qoni to‘kilgan tuproqni jonidan ortiq sevgan cho‘pon Shiroq obrazi yetakchi o‘rin tutadi.U o‘z hayoti evaziga xalqining erkini, ona zamin ozodligini ta’minlaydi. Muallif asarda buni qahramon nutqi orqali jonli, ishonarli lavhalarda tasvirlab beradi: “Agar meni, bola – chaqam va nevaralarimni unutmasang, o‘z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim. Dushmanni daf qilmoq uchun bir xiyla o‘ylab topdim, umrim oxirlab qoldi, axiri bu dunyodan ketmoq kerak. Men el – yurt uchun o‘limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim”. Shiroq fidoiy ajdodlarimizning xalqsevarlik, qahramonlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘zida mujassam etgan obrazdir. Yozuvchi Shiroq jasoratni tasvirlar ekan, asrlar osha xira tortgan tarixiy fakt va ma’lumotga jon ato etadi. Natijada asrlar to‘zoni orasidan voqeа – hodisalar, real shaxslar o‘z dunyosi, muhabbati va nafrati ila ko‘z o‘ngimizda butun borlig‘I bilan namoyyon bo‘la boshlaydi. Qissa yakunida Shiroq fojeali o‘lim topadi. Biroq u mard, tanti tabiatи bilan kitobxon qalbidan joy oladi. Yurt va el uchun yovlarga qarshi kurashi bilan Shiroq ko‘z o‘ngimizda vatanparvarga aylanadi: “ – Men yengdim, Doro qo‘shinlarini bir o‘zim yengdim! – dedi u ( Shiroq ) qichqirib. – sizlarni aldab sahroning qoq o‘rtasiga olib keldim, - qo‘li bilan kun chiqish va kun botish tomonni ko‘rsatdi. – bu yog‘i ham yeti kunlik yo‘l, u yog‘i ham. Istagan tomoningizga boravering. Mening go‘rim shu yerda, - deb oyog‘i ostini ko‘rsatdi”. Mirkarim Osim Shiroq obrazi orqali vatanparvarlik

ham ijtimoiyadolat singari, haqiqat kabi go‘zaldir, degan g‘oyani ulug‘laydi. Shunday shaxs erki, millat hurriyati hamisha bashariy qadriyatlarning betimsol na’munasidir.

“To‘maris”, “Shiroq” qissalarida yozuvchining tarixiy materiallarni taqdim etish uslubi o‘zgacha. Xususan, bu xil rivoyat – qissalarda ko‘tarinkilik va qahramonlik syujetini yoritishda ko‘proq liro – romantic uslub mos keladi. Hamid Olimjonning “Muqanna” drammasi vatanparvar Muqanna sarguzashtlari va xarakteri xuddi shu yo‘sinda tasvirlanganligini eslash o‘rinlidir.

Ma’lumki, tarixiy asarga moziy – hodisalari, real tarixiy shaxslar tasviri obyekt qilib olingan. Tarix materiallarini qalamga olayotgan adib o‘sha olis moziyda kechgan hayot bilan bugungi davr ruhini uyg‘unlashtirmay turib tarixiy mazmunga ega bo‘lgan asar yarata olmaydi. Tarixiy asarlarga qahramon va material tanlashda ijodkordan alohida salohiyat talab qilinadi. Chunki, har qanday mavzudagi ijtimoiy, axloqiy, vatanparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan asarning bugungi kundagi ma’naviy – intelektual ahamiuyati benihoyat katta.

Shiroqning qahramonligi, u ishlatgan harbiy taktika (hiyla) keyinchalik Turon o‘lkasida yashab o‘tgan ajdodlarimiz tomonidan yurtimizga qilich ko‘tarib kelgan bosqinchilarga, xususan Aleksandr Makedonskiy qo‘shinlariga qarshi ishlanganligi haqida grek tarixchilari yozib qoldirishgan. Yozuvchilarimiz Aleksandr Makedonskiy va Spitamen haqidagi tarixiy materiallarni yoritishda Sharq va G‘arb solnomachilari bitiklaridan va yana hozirgi zamon tarixchi olimlarining ilmiy tadqiqotlaridan ham samarali foydalanishgan.

### **2.3. Afsonalarning badiiy talqini**

Jahon adabiyotida Chingiz Aytmatov ijodi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning qissa va romanlari qirg‘iz adabiyotini dunyoga tanitdi va o‘ziga xos yangilik sifatida G‘arbu Sharqning millionlab kitobxonlari muhabbatini qozondi. Chingiz Aytmatov bu davrda jahoning eng mashhur adiblaridan biriga aylandi. Dastlabki asarlaridan biri “Jamila”ni Lui Aragon “Dunyodagi eng go‘zal muhabbat qissasi” deb atagan.

Chingiz Aytmatov ijodi to‘g‘risida so‘z ketsa, albatta, ushbu ta’rifni keltirish an’ana tusini olgan<sup>13</sup>.

Chingiz Aytmatov asarlari insonni ulug‘lashi, uning zahmatkashligi, yaratuvchanligini sharaflashi bilan e’tiborni tortadi. Asosiy qahramonlari – oddiy odamlar. Jamila, Doniyor, Tanaboy, Bola, Mo‘min chol. Adib ana shu oddiy odamlarning turmush tarzini ko‘rsatib, umuminsoniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar to‘g‘risida so‘z yuritadi. “Asrga tatigulik kun” qahramonlari Edigey, Abutolib, “Qiyomat”da Avdiy, Bo‘ston.Ular nafaqat qirg‘iz, qozoqlarning, balki barcha millatlarning adabiy timsolidir. Chingiz Aytmatov qahramonlarining mashaqqatli umr yo‘lini, quvonchu iztiroblarini ko‘rsatish orqali kishilarning inson sifatida o‘z-o‘zini anglashi g‘oyat murakkab jarayon ekanini gavdalantiradi va insoniyat ming yillardan beri ma’naviy jihatdan ulg‘aydimi yoki yo‘qmi, degan muammo to‘g‘risida mushohada yuritishga undaydi. Mutolaa jarayonida fan-texnika yuksak taraqqiy etgan axborot asrida ham odamzot ajdodlarni azoblagan, qirg‘in-barot urushlarni keltirib chiqargan shuhratparastlik, boylikka o‘chlik, hokimiyatparastlik kabi zararli illatlardan xalos bo‘lomagani, xudbinlik, manfaatparastlik kishilarning qon-qoniga singib ketgani, barcha zamonlardagi muammolar ana shu davosiz ma’naviy-ruhiy kasallikdan kelib chiqayotgani to‘g‘risida o‘ylab qoladi. Adibning “Oq kema”, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Oxirzamon nishonalari”, “Tog‘lar qulayotgan zamon” (“Abadiy qalliq”) asarlarida hozirgi davrda umuminsoniy ahamiyatga ega dolzarb ijtimoiy-siyosi, ma’naviy-axloqiy muammolarga e’tibor qarataladi. Ularda mavjud hayot murakkabliklari turli miqyoslarda ko‘rsatiladi. San’atkor insoniyatning bugungi ahvoli, kelajagi to‘g‘risida mushohada yuritar ekan, o‘zi anglagan haqiqatlarga diqqatni jalg etish maqsadida afsona, rivoyatlarga murojaat etadi, har bir kishining hayoti butun koinot bilan chambarchas bog‘liqligi, insoniyat tabiat uchun mas‘ul va javobgar ekanligini ta’kidlaydi. Qissa, romanlarning syujetiga singib ketgan ushbu afsonalarda bugungi kun kishilari uchun saboq, ibrat bo‘ladigan haqiqatlar mavjud.

Olam paydo bo‘lishi, tabiat hodisalari, insoniyatning ilk ibtidosi to‘g‘risidagi xayoliy to‘qimalar “mif” (asotir) deyiladi. Afsona va mif nimani anglatishi solishtirilsa, ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘zaro o‘xhash tushuncha ekanligi

---

<sup>13</sup>Ulug‘ov A.Afsonalarning badiiy talqini “Sharq yulduzi” jurnali, 2015, 6-son.

ayonlashadi. “Qadimgi miflar” deganda “qadimgi afsonalar” nazarda tutiladi. “Prometey to‘g‘risida mif” “Prometey to‘g‘risida afsona” deyilishi xato hisoblanmaydi.

Jahon adabiyoti tarixi va zamonaviy adabiy jarayonga nazar tashlansa, unda afsona, rivoyat, miflar alohida o‘rin tutgani ayon bo‘ladi. “Iliada”, “Odisseya” qadimgi yunon afsonalariga asoslansa, “Ramayana”, “Mahobhorat” hind, “Shohnoma” fors, “Alpomish”, “Manas”, “Qo‘rqut ota kitobi” turkiy xalqlar afsona, rivoyatlari zaminida yaratilgan.

Afsona, rivoyat, ertaklarda xalq hayoti, kishilarining orzu-armonlari va muayyan haqiqatlar aks etadi. Shu boisdan “afsona – tarixning asrandi qizi” deyiladi. XX asrda afsona, rivoyatlar san’at va adabiyot uchun mislsiz manba ekani yanada ayonlashdi. Insonning ichki olami, qalb jumbog‘ini ochishda rivoyat, afsonalarning asosiy omilga aylangani, asarlarning eng qiziqarli, yodda qoladigan jihatni aynan afsona, rivoyatlar bilan bog‘liq ekani kishini hayratga soladi. Chingiz Aytmatovning “Oq kema”, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Tog‘lar qulayotgan zamon” (“Abadiy qalliq”) tilga olinganida ulardagi afsonalar esga tushadi. Aniqrog‘i, ushbu afsonalar mazkur asarlarining mazmun-mohiyatiga singdirib yuborilgan. Bugungi kun kishilari taqdiri asos qilib olingan ayni asarlarda afsona, rivoyatlar syujetning muhim tarmog‘iga aylanib, uqubat, iztirobga to‘la hozirgi hayot xususida o‘ylantiradi.

Chingiz Aytmatov asarlari markazida oddiy odamlar turadi. Adib kundalik turmushda duch kelayotgan muammolarini ko‘rsatish orqali bugungi kunning dolzarb masalalariga e’tibor qaratadi. Ushbu muammolar barcha kishilarga birday daxldor ekanligini ta’kidlaydi. “Oq kema” qissasini “Shoxdor ona bug‘u”, “Asrga tatigulik kun” romanini “Nayman ona”, “Raymali og‘a...” va “Chingizxoning oq buluti” afsonalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayni afsonalar asarda bugungi kun kishilari hayotini ko‘rsatishda zaruriy unsurga aylangan. Tomas Mann, Gabriel Markes ijodida ham rivoyat va afsonalar insonning murakkab ruhiy-ma’naviy olamini ifodalashda o‘ziga xos vosita vazifasini bajaradi va asarning badiiy to‘qimasida muhim o‘rin egallaydi.

“Oq kema” qissasi “Uning ikki ertagi bo‘lardi. Biri o‘ziniki bo‘lib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa bobosi so‘zlab bergandi. Keyin birortasi ham qolmadi. Gap shu xususda” deb boshlanadi. “Oq kema”da hayot murakkabliklari, inson va tabiat, inson va jamiyat munosabatlari, ezgulik va yovuzlik kurashi yuksak mahorat bilan tasvirlanadi va bu muammolar xususida teran falsafiy mushohada yuritiladi. Qissaning asosiy qahramonlari: bola, uning bobosi Mo‘min, o‘rmon xo‘jaligi boshlig‘i O‘razqul va uning xotini. Adib ularning o‘ziga xos xarakterini ochish orqali mehr-muhabbat va zulm-zo‘rlik, xokisorlik va yovuzlik kurashini yoritadi.

Bola faqat bobosiga suyanadi. Bolaga, bobosining Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertagi yoqadi. Bobosi o‘zini Shoxdor ona bug‘uning avlodи deb biladi. Bola Shoxdor ona bug‘u to‘g‘risida bobosidan eshitgan ertakni portfeliga aytib beradi. Ushbu afsona xuddi ertak singari “bu juda qadimda bo‘libo‘tgan” deb boshlanadi. Unda ezgulik va yovuzlik kurashi naql qilinadi. Zo‘ravonlik, shuhratparastlik, azal-azaldan kishilarni azoblab kelgani qirg‘izlarni qirg‘in qilgan dushmanlarning shafqatsizligi misolida gavdalantiriladi. “O‘zga qabilaning so‘nggi odamigacha qirgan, molu mulkini tortib olgan kishi eng aqlii, uddaburon, botir sanalgan zamon”da kechgan xunrezliklar haqidagi bu afsona o‘zining butun dahshati bilan xayolni egallab oladi. O‘shanda kishi qirg‘inbarot urushlar behad fojiali ekanini tasavvur qilib, odamlar yovuzlashganida naqadar tubanlashib ketishidan dahshatga tushadi. Dushmanlar qirg‘izlarning yer-suvi, boyliklarini egallah uchun ularni bitta ham qoldirmasdan o‘ldirishadi. Lekin bir o‘g‘il va bir qiz bola dushmanlar hujum qilmasidan avval qo‘lsavat uchun po‘stloq shilishga ketgani bois omon qoladi-yu o‘rmondan chiqib, mislsiz fojianing ustidan chiqishadi. Dushmanlar “bu ikki bolani o‘rmonga olib borib, shunday qilginki, shu bilan qirg‘iz zoti tugasin, xayolga ham kelmasin, nomi abadiy o‘chsin” deb Cho‘tir Baymoq kampirga topshirishadi. Kampir bolalarni tubsiz jarlikka itarib yuborishdan oldin: “O, muazzam Enasoy daryosi! Kel, endi ikki qum zarrasini – ikki odam bolasini o‘z bag‘ringga olgin. Ularga Yer yuzida joy yo‘q...” deb murojaat qiladi. Asarning ayni o‘rinlari o‘quvchini hayajonga soladi. Shoxdor ona

bug‘u haqidagi afsona bu jihatdan “Asrga tatigulik kun” romanidagi Nayman ona afsonasiga o‘xshaydi. Unda ham kishilar qadimdan bir-birining ustidan hukmronlik qilish uchun shafqatsizlikning turli usullarini o‘ylab topishgani xususida so‘z ketadi. Mislsiz azobdan o‘lmay qolgan asir oxir-oqibat ismini, ota-onasini, butun kechmishini unutib, boshidagi teridan uni xalos qilgan kishini xo‘jayini bilib, har qanday hukmini so‘zsiz ijob etadigan holatga tushadi. Odamlar bir-birlarini ana shunday mute qul – manqurtga aylantirishni istashadi. Chingiz Aytmatov romanda manqurtlik turli shakllarda namoyon bo‘lishi va u hamisha insoniyat uchun fojia ekanini o‘z onasini otib o‘ldirgan Jo‘lomon va otasining vafot etganiga qayg‘urmagan Sobitjon, kishilarni qiynash, azoblashdan huzur qiladigan Tansiqboyev xatti-harakatlarini ko‘rsatish assosida gavdalantiradi.

Afsona, rivoyatlarda insonning paydo bo‘lishi, hayoti bevosita tabiat bilan bog‘lanadi. Shoxdor ona bug‘u to‘g‘risidagi afsonada ham bir qabilaning omon qolishiga tabiat, undagi o‘simpliklar, jonzotlar sababchi qilib qo‘rsatiladi. Shuning uchun tabiat onaga qiyoslanib, “ona tabiat” deyiladi. “Oq kema”dagi afsonada Shoxdor ona bug‘u tabiat timsolidir. Odamlar qanchalik zarar yetkazsa-da, tabiat odamlardan ne’matlarini ayamaydi. Shoxdor ona bug‘u ham kishilar uning ikkita bolasini otib o‘ldirishsa-da, odam bolalariga yaxshilik qiladi. U Cho‘tir Baymoq kampirning ogohlantirishiga qaramasdan, qirg‘in qilingan qabilaning omon qolgan bolalarini uzoq joyga olib ketib, suti bilan boqib, kechalari bag‘riga bosib, isitib ulg‘aytiradi. Ular farzand ko‘rganida oppoq qayindan yasalgan, bandida kumush qo‘ng‘iroqcha jaranglab turgan beshik keltiradi. Shoxdor ona bug‘u Cho‘tir Baymoq kampirga: “Odamlar egizlarimni o‘ldirishdi, men o‘zimga bola izlab yuribman. Shu bola va qizchani ber. Men ularga ona, ular esa bolalarim bo‘lishadi” deydi. Chingiz Aytmatov Shoxdor ona bug‘u timsolida tabiat va onalik bir-biriga bevosita bog‘liqligini shu tarzda ko‘rsatadi.

“Qiyomat” romanida Iso alayhissalomning qatl qilinishi to‘g‘risidagi rivoyatda qatl manzarasini osmonda bir qush kuzatib turgani ta’kidlanadi. Bu qushni Iso alayhissalom ham, uni qatl etishga hukm etgan prokurator Pontiy Pilat ham ko‘radi. Pontiy Pilat Iso alahissalomga “Boshingda ajal qushi aylanyapti”

deganida, u ohistalik bilan: “U hammamizning boshimizda aylanyapti” deydi. Qush soqchilar qurshovida qatl qilish uchun olib borilayotgan Iso ortidan o’sha joyga borib, atrofni aylanib uchib yuradi. Pontiy Pilat bu holatdan taajjublanib, tashvishga tushadi.

Iso alayhissalomni qatl qilishga farmon bergan prokurator ham johil mustabid emas. Iso alayhissalom qatl qilinishini istamaydi, bunday farmon berishga botinmaydi. Pontiy Pilat u bilan inson mohiyati, fe'l-atvori, ertangi kuni to‘g‘risida suhbatlashadi, babs-munozarada hukmdorlarga xos takabburlik qilib, zug‘um o‘tkazmaydi.

Chingiz Aytmatov Pontiy Pilatni hamma odamlar kabi dunyoviy fikr yuritib, aksariyat kishilar singari o‘z so‘zini o‘tkazishga harakat qiladigan inson sifatida gavdalantiradi.

Iso (a. s.) munozara qilib, uni ahdidan qaytarmoqchi bo‘lgan prokuratorga: “Bilib qo‘yki, Rim hukmdori, oxirat men tufayli emas, tabiiy ofatlar tufayli emas, odam bolalarining dushmanligidan keladi” deydi. Uning ushbu so‘zlarida Shoxdor ona bug‘u, Nayman ona afsonalari va Iso alayhisalom to‘g‘risidagi rivoyatning mazmun-mohiyati mujassamlashadi.

Adib afsona, rivoyatlarni insoniyatning ma’naviyatini ko‘rsatadigan o‘ziga xos ko‘zguga aylantirib, bugungi kun kishilari bilan ularning ajdodlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik rishtalarini ko‘rsatadi. Turkiy xalqlar folklorida kiyik go‘zallik, nafosat, mehribonlik ramzi sifatida ta’riflanadi. Kiyikning odamlardan jabr chekkani to‘g‘risida rivoyatlar talaygina bo‘lgani holda, hech bir ertak, afsonada bu jonzotning kishilarga jabr qilgani naql etilmagan. Chingiz Aytmatov shuning uchun ham bola va qizchaga bug‘u onalik qilganini ko‘rsatgan. Shoxdor ona bug‘u to‘g‘risidagi afsonada bug‘uning yosh bola va qizchani bag‘riga olishi har jihatdan asoslanadi. “Qiyomat” romanida ona bo‘ri Akbara ham kichkintoy Kenjashni ko‘rganida bolalari esiga tushib, u bilan o‘ynaydi, yuzini yalaydi. Kenjash u bilan o‘ynay boshlaganida bolalaridan, jufti Toshchaynardan judo qilib, uni manzil-makonsiz qoldirgan odamlardan qasos olish istagi birdan so‘nadi. Asarda ona bo‘ri Akbaraning ushbu holati: “Bo‘ri o‘rnidan qimirlamay ma’yus ko‘zlar bilan bolaga

termilib yotar, shunda bola yana orqasiga qaytib, uning boshini silab-silab qo‘yar, Akbara esa uni yalab-yulqar, bu bolaga benihoya xush yoqardi. Bo‘ri yuragida yig‘ilib qolgan barcha mehrini unga to‘kib solmoqchi, uning bola hidlarini ko‘ksini to‘ldirib-to‘ldirib iskamoqda. Bu bola mening qoya tagidagi uyamda yashasa qanday soz bo‘lardi, degan o‘y o‘tdi bo‘ri kallasidan” deb tasvirlanadi.

Onaning mehri hamisha uning qahridan ustun keladi. Odamlarda ham, boshqa jonzotlarda ham kuzatiladigan ushbu g‘aroyib sir-sinoat xalq qo‘shiqlari, ertak, doston, afsona va rivoyatlarida madh etiladi. Shoxdor ona bug‘u, ona bo‘ri Akbaraning odam bolalariga mehribonlik ko‘rsatishi zaminida avvalo ularning tabiatidagi onalik hissi yotadi. Chingiz Aytmatov afsona, rivoyatlardagi odamlar va jonzotlarning ayni jihatiga e’tibor qaratish orqali onani ulug‘laydi. U shoxdor ona bug‘u, ona bo‘ri Akbaraning alam-qayg‘usi, dardu iztirobi, mehrini qalamga olish asnosida barcha onalarning dardini ko‘rsatadi. Onalar esa hamisha butun insoniyatning dardi, tashvishi bilan yashaydi.

Badiiy asarlar voqelikni xuddi o‘ziday aniq, ravshan, ishonarli va ta’sirchan aks ettirgani bilan emas, balki inson qalbi, ruhiyati, ichki olami, uning “men”ini qanchalik teran tadqiq etganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Chunki ayni shu xildagi asarlarda inson dunyosining murakkab sir-sinoatlari ochib ko‘rsatiladi. Chingiz Aytmatov ham afsona va rivoyatlarni qissa va romanlari syujetiga singdirish asnosida bugungi kun kishilarining ziddiyatga to‘la ruhiy olamini tadqiq etishga intiladi. “Oq kema” qissasida Shoxdor ona bug‘u asrab olgan bola va qizchaning farzandlari dastlab bug‘ularga tegishmagani, hech kim ularni hurkitmagani, o‘sha paytlarda kishilar bug‘uga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo‘l berishgani, oshiqlar sevganlarini oq bug‘uga qiyoslashgani ta’kidlanadi. Ammo bu udum bir boyning o‘g‘illari boshqalardan ustunligini ko‘rsatib qo‘yish niyatida o‘lgan otasining qabriga bug‘u shoxini o‘rnatishganidan keyin boshqalar ham o‘sha boyning shuhratparast o‘g‘illariga taqlid qilib, marhumlar qabriga bug‘u shoxi o‘rnata boshlagani aytildi.

Odamlar azaldan bir-birlarining boyligi, mansab-martabasiga qarab, muomala qilishadi. Ko‘proq badavlat kishilarning yurish-turishi, gapirishi, turmush

tarziga havas va taassub etishadi. Boylar esa boshqalardan ajralib turish, atrofdagilardan ustun ekanini ko'rsatishdan hech qachon tiyilmaydi. Muttasil davom etadigan bu jarayon o'z-o'zidan turli muammolarni tug'diradi.Odamlar tabiatdagi muvozanatga putur yetkazishi, firibgarlikni, bir-birini aldashni "aqlilik mezoni"ga aylantirishi ularning boylik toplashga ruju qo'yishi, shon-shuhratga intilishidan kelib chiqadi."Oq kema" qissasidagi O'rozqul bug'u shoxini otasi qabriga o'rnatgan boyvachchalarga o'xshaydi.Afsonada boyvachchalaryning ham, o'g'illariga katta meros qoldirgan boyning ham ismi aytilmaydi.Unda shuhratparast, maqtanchoq, zo'ravon kimsalarning timsoli shu tarzda umumlashtiriladi.O'razqul boshqalardan ustun ekanligini namoyish etishdan lazzatlanadi. Buning uchun o'zgalarga zo'ravonlik qilishdan ham tap tortmaydi. Barchaning o'ziga so'zsiz itoat qilishi, hamma istaklari bajo keltirilishini istaydi.O'razqul farzand tug'mayotgani uchun xotinini aybdor sanab, do'pposlaydi, qaynotasi Mo'min cholni nazar-pisand qilmay, so'kib tahqirlaydi. O'razqul kishilarni mansab-martabasi, boyligiga qarab baholaydi. U Mo'min cholga: "Muallimang o'zi kim bo'libdi? Besh yildan beri ustidan bitta palto tushmaydi. Faqat daftar bilan, sumka bilan ko'rasan. Doimo yo'lida qo'l ko'tarib, mashina kutgani kutgan" deydi.

O'razqul mansabni boshqalarga hukmronlik qilish vositasi deb biladi. Kattaroq amaldor emasligi, ovloq bir joyda kichkina o'rmon xo'jaligi boshlig'i ekanligicha qolayotgani uni ko'p azoblaydi.

Mo'min chol O'razqul singari zo'ravonlarningadolatsizligi, zulmi haqida o'ylab eziladi. "Odamlar nega shunday bo'lib qolishar ekan-a? Sen unga yaxshilik qilasan, u senga yomonlik qaytaradi. Uyalmaydi ham, uyalishni xayoliga keltirmaydi ham. Xuddi shunday bo'lishi lozimdek hamisha o'ziniki to'g'ri deb biladi. Faqat unga yaxshi bo'lsa, bo'lgani. Hamma uning atrofida girdikapalak bo'lishi kerak. Agar istamasang, majbur qiladi" deb iztirob chekadi. O'razqul takabburligi, shuhratparastligi bilan qirg'izlar qavmini qirg'in qilib, Cho'tir Baymoq kampirga bola va qizchani o'ldirishni buyurgan xonga, Nayman onaning o'g'lini manqurtga aylantirgan zolimlarga o'xshaydi.

“Asrga tatigulik kun” romanidagi Sobitjon xarakteri, dunyoqarashi jihatidan o‘z onasini otib o‘ldirgan Jo‘lomondan farq qilmaydi. Ularning biri – zamonaviy, ikkinchisi – o‘tmishdagi manqurt. Sobitjon urf-odat, qadriyatlarni nazar-pisand qilmaydi. Ularni odamlar o‘tmishda ermak uchun o‘ylab topishgan, deydi.Otasi vafot etganidan qayg‘urmaydi. Marhumni uning vasiyatiga ko‘ra Ona Bayit qabristoniga eltid, dafn etishga qarshilik qiladi. “Uzoqdagi Ona Bayit qabristoniga olib borish shartmi? O‘lgan odamga qayerga ko‘milishning nima ahamiyati bor?” deydi. Sobitjon yoshligidan ota-onasidan uzoqda bo‘lgani, maktab-internatda o‘qib, shaharda yashab qolib ketgani tufayli yaqinlariga mehrsiz, urf-odat, taomillarga tushunmaydigan kimsaga aylanadi. “Idorada zarur ishlar qolib ketyapti, vaqt bo‘lsa tig‘iz. Boshliqlarimiz qabristonning uzoq-yaqinligini surishtirib o‘tirmaydi, ishga falon kuni kelasan, boshqasini bilmayman, deydi. Boshliq nima bo‘lganda ham boshliq, har holda, shaharning sharoiti bo‘lak” deb o‘zini oqlaydi.

“Asrga tatigulik kun” romanidagi Raymali og‘a va Begimoy to‘g‘risidagi rivoyat sevgi-muhabbat mavzusida bo‘lsa-da, uning ham markazida xuddi Nayman ona, Shoxdor ona bug‘u afsonasidagi kabi ezgulik va yovuzlikning kurashi turadi. Ushbu rivoyatda johil kimsalar sevishganlarga qanchalik qarshilik ko‘rsatishgani ta’sirchan naql qilinadi. Mazkur rivoyat muayyan darajada adibning “Jamila” qissasini yodga soladi. Qissada eri urushga ketgan Jamila urushdan qaytgan boshqa erkak – Doniyorni sevib qolgani hikoya qilinadi. Rivoyatda esa o‘n to‘qqiz yoshli Begimoy oltmishdan oshgan Raymali og‘ani yaxshi ko‘rib qolishi bilan bog‘liq dramatik voqealar naql etiladi. Qissada Jamila va Doniyor birga ketadi. Oqin Raymali og‘aga esa odamlar “aqldan ozgan” deb qaraydi. Ukasi Abdilxon uni bandi qilib, daraxtga bog‘lab tashlaydi. Ushbu rivoyatda Abdilxon zolimlik timsoli bo‘lib ko‘rinadi. Johil, zolimlarning boshqalardan farqli jihat shundaki, ular hech qachon haqiqatni tan olishmaydi, boshqalarning ham xohish-istagi, ko‘ngli borligiga e’tibor qilishmaydi. Faqat o‘zlarining manfaatini o‘ylashadi. Raymali og‘aning ukasi Abdilxon, boshqalarni bemalol oyoq osti qilib ketadigan xudbin kimsalarning yorqin obrazidir. Raymali og‘a qarindoshlaridan “Kuy quyilib kelsa,

kuylamoqning nima aybi bor?” deb so‘raydi. Uning bu savollariga hech kim, urug‘ oqsoqollari ham javob berolmaydi.

“Chingizzoning oq buluti” qissasi asosida ham afsona turadi. Qissada afsona misolida sho‘ro siyosati zo‘rlikka asoslanganiga ishora qilingan. Chingizzon to‘g‘risidagi afsona roman syujetida alohida tarmoq bo‘lsa-da, lekin asar umumiy ruhiga singishib ketgan. Adibning olam va odam to‘g‘risidagi falsafiy mushohadalari roman syujetidagi barcha tarmoqlarni, jumladan, undagi afsona va rivoyatlarni yaxlit birlashtirgan. Nayman ona, Chingizzon afsonasi, Raymali og‘a va Begimoy to‘g‘risidagi rivoyat umumbashariy nuqtai nazaridan yoritilgan.

Chingiz Aytmatovning san’atkorligi shundaki, u asarlarida shafqatsiz, zolim kishilar obrazini faqat qora bo‘yoqda ko‘rsatmaydi. U bunday kishilarda ham ozgina bo‘lsa-da, insoniy xususiyatlar mavjudligi, ular ham iztirob chekishi, yig‘lashini mahorat bilan ochib beradi. Behisob qon to‘kkan mustabidning ko‘ngil kechinmalari, armon, iztiroblari bilan tanishtirib, uning inson sifatidagi murakkab olamini ko‘rsatadi. “Chingizzonning oq buluti” hajm jihatidan adib asarlaridagi eng katta afsona sanaladi. Shoxdor ona bug‘u, Nayman ona afsonalarida to‘qima qahramonlar obrazi yaratilgani holda, ushbu afsonada tarixiy shaxs – Chingizzon asosiy qahramon sifatida gavdalantirilgan.

“Asrga tatiflik kun”, “Qiyomat” asarlarida hayot hodisalarini aks ettirish va inson dunyosini gavdalantirishda zamонавија jahon adabiyotidagi ilg‘or tajribalar mujassamlashtirilgan. Bu mazkur asarlarning kompozitsiya va syujeti qurilishi, unda afsona va rivoyatlarning joylashtirilishi, qahramonlar xatti-harakati, kechinmalarining ular xotiralari bilan bog‘lanishi va eng asosiysi, turli xarakterdagi personajlarning ichki olamidagi ziddiyatlarga e’tibor qaratilishida ko‘rinadi.

Hayot har bir kishining oldiga har daqiqada kutilmagan muammoni qo‘yadi. Shuning ta’sirida odamning kayfiyati, borliqqa, kishilarga munosabatida muttasil o‘zgarishlar ro‘y beradi. Shu boisdan “insonning qalbi g‘oyatda nozik” deyiladi. Kishining qalbida ezgulik va yovuzlik hislari bir-biriga juda yaqin turadi. Ana shundan qalbda ziddiyatli kechinmalar kechadi. Inson har bir narsadan xavotir

oladi, ikkilanadi, shubha, gumonga boradi. Odam aslida tabiatidagi ana shu jumboq bois azoblanadi. Chingiz Aytmatov turli xarakterdagi qahramonlar obrazini yaratishda ana shu haqiqatdan kelib chiqadi.

Adib barcha asarlarida inson dunyosiga turli rakurslardan qaraydi. U qissa, romanlarida o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yish istagi kishilar tabiatiga chuqur singib ketgani, hayotdagи barcha muammolar aynan shundan kelib chiqishini ko‘rsatadi. Chunki har bir odam butun hayoti davomida o‘z manfaati sari intiladi. Lekin bu hech bir kishining qabihligini oqlash uchun asos bo‘lmaydi. Chunki har qanday qabihlik jinoyatdir. “Tog‘lar qulayotgan zamon” (“Abadiy qalliq”) romanida tabiat ham odamlarning bir-biriga adovatidan aziyat chekishi tasvirlangan. Adibning so‘nggi asari bo‘lib qolgan mazkur romanda “Abadiy qalliq” afsonasi naql qilinadi. Afsonada sevishganlar hasadchilar fitnasi tufayli bir-biridan ayrilgani haqida so‘z boradi. Fitnachilar to‘y kuni kelinni “sevgan yigit bilan kechasi qochib ketdi” deb gap tarqatib, uni o‘g‘irlab ketishadi. Lekin daryodan o‘tishda fitnachilar halok bo‘lib, qiz omon qoladi. U to‘y o‘tgan joyga qaytganida kuyovning tog‘larga bosh olib ketganini eshitib, o‘sha tomonga yo‘l oladi. Kuyovni ham, kelinni ham hech kim topolmaydi. Kuyov tog‘larga ketishidan oldin odamlarga: “Butkul odam zotini qarg‘ayman! Odam bo‘lgandan ko‘ra hayvon bo‘lganim yaxshi... Dunyoda bironta odamni ko‘rgani ko‘zim yo‘q va bundan buyon meni hech kim ko‘rmaydi” deb aytadi.

Ushbu afsona asar syujetini yaxlit birlashtirib turadi. Adib afsona bilan bog‘liq sahifalarda o‘zini azoblagan alamli o‘ylarni ifoda etadi.

“Oxirzamon nishonalari” romanida qahramon okean ustida ikkita quyosh paydo bo‘lib, suvning chidab bo‘lmaydigan darajada qaynab ketganini tush ko‘rishi, bu falokatdan qutilish uchun kitlar o‘tkir uchburchak hosil qilgancha ufqqa qarab suzishi, u quturgan okeanda kitlar bilan yonma-yon suzib borarkan: “Okean qaynab ketadi va biz hammamiz nobud bo‘lamiz!” deb baqirishi bayon etiladi.

Bu jonivorlar uchun eng dahshatlisi inson aqli yetmaydigan, payqamaydigan holat, ya’ni nosog‘ ijtimoiy muhitning, odamlar qilgan yovuzliklarning ta’sirida

dunyoviy ruh muvozanatining buzilishi bo‘lsa kerak. Aftidan, kitlar uchun eng dahshatlisi ana shu... Kitlar inson xulqidagi nopliliklarga, shafqatsiz va dahshatliliklarga chiday olmaydi... Qahramon tilidan aytilayotgan ayni so‘zlar aslida adibning azobli o‘ylari, uning dardi, iztirobi ekani aniq anglashiladi.

Odam qanday fikrlasa, shu tarzda harakat qiladi. Kishi intilishi uning fikri, ichki o‘ylarga muvofiq kechadi. Chingiz Aytmatov ham qahramonlari obrazida ayni haqiqatni gavdalantiradi.

### **III bob.BMI ning amaliyotga tatbiqi va tajriba-sinov ishlari natijalari**

#### **3.1. Mirkarim Osimning “To‘maris” afsonasini sharhlab o‘rganish**

Har bir xalqning asarlari idealini, aks ettirgan boy og‘zaki so‘z san’ati bo‘lganidek o‘zbek xalqining ham og‘zaki adabiyoti durdonalari mavjud. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi mehnatkash xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan jamoa ijod mahsulidir. Chunki, folklor asarlari bir kishining ongli faoliyati natijasida yaratilmay, balki bir butun kollektivning ijodiy tarbiyasi asosida vujudga keladi.

Ma’lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari jamoa tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. Keyinchalik esa talantli kishilar tomonidan yaratildi. Ular o‘z ijodida qabila va urug‘ odatlari, hohishlari, etiqotlari, tabiat bilan bo‘lgan munosabatlari hamda dunyo qarashlarini hikoya qildilar. Qabila va urug‘ a’zolariga ma’qul tushgan bu asarlar og‘izdan-og‘izga o‘tib kollektiv ijodga aylangan. Demak, ijodkor jamoa, ayni paytda ijrochi hamdir. Ijodkor va ijrochi asar yaratishda o‘rgangan tajriba va an’analariga suyanadi, ijro davomida o‘zidan biror detal qo‘sadi va uni sharoitiga moslashtiradi. Jamoa tomonidan yaratilgan asarlar shu tariqa takomillashib xalq, mulkiga aylanadi. Demak, folklor asarlarda jamoa ijod tushunchasi hech mahal individual ijod rolini inkor etmaydi.

Xalq poetik ijodi yozuv paydo bo‘lmasdan ko‘p zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli og‘zaki an’ana bilan bog‘liqdir. Og‘zakilik xususiyati uni xalq san’atining boshqa turlaridan (masalan musiqa, raqs, o‘ymakorlik) ajratib turadi. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida og‘zaki yaratilish va og‘zaki ijro etilish uning shakl va mazmuniga ta’sir etmasdan qolmas edi. Ma’lumki, ayrim tarixiy faktlarning to‘liq esda qolmasligi zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki o‘zgarib qorishtirib talqin etilishi mumkin. Shuning uchun tarixiy voqealar va hodisalar folklorda aynan aks etavermaydi. Ba’zan esa dostonlarda mavjud bo‘lgan she’riy parchalarning unutilishi mazkur janrning ertak shakliga keltirib ham qo‘yishi

mumkin ,yoki aksincha ,ertakning dostoniga aylanishi ham ehtimoldan holi emas. Folklor asarlarida yuz berishi mumkin bo‘lgan bunday hodisa, uning g‘oyaviy, badiiy, estetik qimmatini kamaytirmaydi.

Xalq og‘zaki poetik ijodining ijtimoiy qimmati, ma’rifiy, g‘oyaviy, tarbiyaviy va estetik ahamiyati shundaki, u xalqning tarixi, urf-odati, maishati, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabati, orzu-umidlari haqida keng bilim beradi.

Dars birinchi navbatda o‘quvchilar uchun qiziqarli, muayyan didaktik talablar asosida tashkil etilgan bo‘lishi, o‘quv materialining o‘quvchilar tomonidan imkon qadar to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlashi, mazkur materialning o‘quvchilar ongiga asosli tarzda qayta ishlanishiga sharoit yaratilgan bo‘lishi hamda ushbu bilimlarning o‘quvchilar tomonidan aniq ifodalananishiga erishilishi lozim.

DTSga asoslangan 5-sinf darligida<sup>1</sup> Mirkarim Osimning “To‘maris” afsonasini o‘rganishga 2 soat ajratilgan.

Adabiyot o‘qituvchisi 1 soatlik dars jarayonida dars o‘tishning an’anaviy, noan’anaviy, aralash turlarida dars olib borishi lozim. O‘qituvchi 1 soatlik darsi jarayonini o‘z oldiga qo‘ygan talablar va maqsadlari asosida olib boradi. Agar o‘qituvchi darsi jarayonida biror-bir ijodkorning hayoti va ijodini o‘tmoxchi bo‘lsa, avvalo uning yo‘li haqida, boshidan kechirgan tarixi haqida so‘z yuritishi kerak. Unda o‘qituvchi, huddi ijodkorning tilidan so‘zlayotgan kabi uning boshidan o‘tkazganlarini o‘zida his qilgan holda o‘tishi kerak bo‘ladi. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarga mavzu g‘oyachini yetkazib tushuntirib bera olmas ekan o‘quvchilarning o‘sha sohaga, o‘sha fanga qiziqishlari so‘nib borishi tabiiy hol. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi, har bir pedagog ijodkor bo‘lishi kerak. Ana undan keyin esa uning ijod yo‘li haqida, u qanday asarlar, qanday ijod namunalari yaratganligi haqida batafsil ma’lumot berishi kerak. Uning ijodidan na’munalar keltirish orqali o‘quvchilar ongida ijod namunasining bosh g‘oyasini shakillantira bilishi kerak. Men o‘zimning 3 yillik olgan bilimlarim, pedagogik mahoratimdan kelib chiqqan holda va universitet professor-o‘qituvchilari va pedagogik

---

<sup>1</sup>Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2015.

amaliyotda orttirgan tajribalarimga tayangan holda 5-sinflarga “Afsonalar” haqida dars o‘tdim. Men mana shu darsni o‘tish jarayonida o‘quvchilarga:

1. Afsona o‘zi nima? Ular kim tomonidan yaratiladi?
2. “Mif” bilan “Afsona” o‘rtasidagi farq nimada ekanligi?
3. “Afsonalar” ning asosiy g‘oyalari nima?
4. Qanday afsonalar yaratilgan?

5.Ularni o‘quvchilar ongiga singdirish kabi talablarni o‘quvchilarga tushuntirish, misollar keltirish orqali dars o‘tdim va bu darsimni o‘quvchilar qanchalik puxta yoki sust o‘zlashtirganligini darsim jarayonida bergen savollarim orqali ularning bergen javoblaridan bilib oldim va o‘zimning kamchilik va yutuqlarimni ularda ko‘rdim.

O‘qituvchi darsini boshqa fanlarga bog‘lagan holda o‘tishi va o‘quvchiga tushuntirishi kerak. O‘sha o‘tilgan yoki o‘qilgan asar yoki she’r personaji orqali o‘quvchi o‘zini his qilishi, ijodkor nima demoqchiligin darhol anglay bilishi kerak. Qahramonning ichki kechirmalarini o‘quvchi his qilib, o‘ziga kerak xulosalarni chiqarib olishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchi har tomonlama izlanuvchan, mohir va ijodkor bo‘lishi kerak. Undan tashqari o‘sha asar yoki she’rdan namuna o‘qitish yoki yod oldirish jarayonini olib borishi kerak. Bu esa o‘quvchining tafakkur darajasini, dunyoqarashini, burro so‘zlash darajasini oshiradi. Yana o‘quvchining bilim saviyasini oshirish, uning zukkoligini bilish orqali turli hil mushoirlar, ijodkor hayoti va ijodiga bag‘ishlab savol-javoblar o‘tkazishi kerak. Undan tashqari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun insho yozdirish va uyga vazifalar berish mumkin. Bir soatlik dars mobaynida o‘qituvchi ko‘p narsalarga e’tibor berishi kerak. Faqat o‘quvchiga bilim berishi emas, uni darsda o‘zini tuta bilishi, odobi, xulqini nazorat qilib borish kerak. Ularning bilim darajasiniadolatli ravishda baholash kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchidan kuchli iste’dodni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan darsdan tashqari ham ishlashi kerak. Agar o‘qituvchi ish jarayonini hamkorlikda olib borsa foydadan holi bo‘lmaydi deb o‘ylayman. Bunda o‘quvchiga oila, mahalla, mehnat jamoalarining yordami beqiyos bo‘ladi.

Hozirgi kunda o'quvchilar ongida milliy g'oya, milliy mafkurani singdirish, o'qituvchi oldidagi eng katta talablardan biri bo'lib bormoqda. Xattoki, o'sha adabiyot darslarini o'tishda ham milliy g'oya, milliy mafkuraning o'rni beqiyos. Buni esa o'qituvchi o'zi tushungan holda bolalarga tushuntirishi kerak. "Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo'naltirish ustivor yo'nalishi bo'lishi kerak. Ijodkorning murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqe'lagini, oljanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino musiqa va tasviriy san'at asarlari yaratishga har tomonlama rag'batlantirish, yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish, milliy g'oyani tarannum etishga, istiqlol mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ohib berishga, ayniqsa, e'tiborini kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkuraviy muhitning sog'lom bo'lishiga erishi lozim.

Demak, adabiyot va o'qituvchi oldiga qo'yilgan talablar hayotdan kelib chiqqan holda namoyon bo'lar ekan. Ijodkorning orzu umidlarini aks ettirib beradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at, bular bari bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Birini tasvirlash orqali bayon etib bersa, yana birini yozish orqali, ko'rsatib berish orqali bayon etadi. Mafkuraviy tarbiyaning yana bir ijtimoiy omillaridan biri bu-oiladir. Oila ko'p asrlik mustahkam tayanchga ega. Milliy mafkuramizga hos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayonbobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Demak, o'qituvchi ish jarayonlarini oila orqali uning bergen bilimi, tarbiyasi orqali o'quvchini shakllantirsa, foydadan holi bo'lmaydi.

Mahalla ham shular jumlasiga kiradi. Mahalladagi o'zaro inoqliklar, urf-odatlar (to'ylar, bayram tadbirlari) o'quvchi ongiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jamoaning hamjihatligi, o'sha mahalladan o'sib, ulg'ayotgan har bir o'g'il-qizga ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos. O'qituvchi ish jarayonida mahalla bilan hamkorlikda ish olib borsa, foydadan holi bo'lmaydi.

Bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilarni o‘ziga jalg qila olish, ishtiyoyqini uyg‘ota olish, milliy zamonaviylikni sindirib, milliy tarbiyaviy fazilatlariga ruhlantira olish, o‘zini “mukammal, zamonaviy o‘zbek ziyolisi” siymosiga ongli ravishda tayyorlash va takomillashtira borish; o‘zbek tilida sof, tiniq, ifodali, ta’sirli, ohangdor so‘zlash, notiqlik va aktyorlik mahorati: yuz, qiyofa, ko‘z, qo‘l harakatlari orqali o‘z nutqining ta’sirchanligini oshira olish; his tuyg‘ularini jilovlay olish: o‘quvchilarga bevosita va parallel ta’sir ko‘rsata olish zarur.

U demak, ana shunday fazilatlar egasi, ana shunday talablarni bajara oladigan inson pedagog bo‘lishi mumkin.

5 sinf adabiyot darslarida “To‘maris va Shiroq” afsonalarining o‘qitilishi yuzasidan ba’zi mulohazalar.

Mustaqillik tufayli milliy urf-odatlarimiz, an’ana, bayram va marosimlarimiz qaytadan tiklanmoqda. Bu o‘z navbatida xalqimizning millat sifatida o‘zligini angloyotganligidan dalolat beradi. O‘zligini anglash deganda u yoki bu xalqning o‘z boyligiga o‘zi yegalik qilishi, o‘zining milliy urf-odati, an’ana, bayramlarimizni erkin nishonlash, boshqa xalqlar bilan erkin muloqatda bo‘lishi tushuniladi. Bu esa o‘z navbatida xozirgi zamon pedagogika fani oldida o‘quvchi yoshlarda o‘zligini anglashda o‘zlashtirishning samarali shakli va usullarini ishlab chiqishni taqazo etadi.

O‘quvchilarda o‘zligini anglash tuyg‘usini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi boy imkoniyatga ega .

Shu bilan birga u eng qulay va ta’sirchan vosita hamdir. Chunki bolalar ilk yoshlik chog‘laridanoq u bilan yaqindan tanishadi. Badiiy adabiyot yaratilish uslubiga ko‘ra xalq og‘zaki ijodi yozma va og‘zaki turlariga bo‘linadi. Og‘zaki adabiyotga dostonlar, maqollalar, ertaklar, qo‘shiqlar bilan bir qatorda afsonalar ham kiradi. Xalq og‘zaki ijodi qadimgi zamonalarda yaratilgan asarlar, qaxramonlik eposlari, tarixiy afsonalar, konkret tarixiy voqealar zaminida tarkib topadi. Ularda xalqlarimizning tinchlik va osoyishtalik uchun bosqichlarga qarshiolib borgan kurashlari yoritilgan bo‘ladi. Tarixiy afsonalarimiz “To‘maris” va “Shiroq” da insof va adolatning mard kurashchilari, xaqiqiy vatanparvar, xalqga chinakam

sadoqatli obrazlar yaratilgan. Biz o‘rganayotgan afsonalarning o‘quvchilarda o‘z vatani va xalqiga sadoqatli bo‘lish, uning urf-odatlarini, bayramlarni, an’analarini xurmat qilish, o‘z millatining tarixi va taqdiriga qiziquvchan bo‘lish va o‘zligini anglashni tarbiyalashdagi ahamiyati kattadir.

Shuningdek, maktab darsliklaridan o‘rin olgan va dars jaryonida o‘rganiladigan “To‘maris”, “Shiroq” afsonalari o‘quvchilarda xalqni asoratga solishga intiluvchi kuchlarga qarshi kurash tuyg‘usini, vatanparvarlik, xurlik hissini tarbiyalashda boy imkoniyatga egadir.

Shu maqsadlarni ko‘zlab, V sinf adabiyot darslarida “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarini o‘rganish va tahlil etish uchun 2 soatdan, jami 4 soatajratilgan.

Avvalo, darsni metodik jihatidan quyidagicha taqsim qilgan ma’qul.

1. “To‘maris” hikoyasi o‘quvchilar bilan birga o‘qib chiqiladi va zarur sharhlar beriladi. Xalqimizning chet el isyonchlariga qarshi kurash tarixi, Spitamet, Jaloliddin Manguberdi, Maxmud Tarobiy, Amir Temur, Qurbanjon dodxoh kabi erk va mustaqillik uchun kurash olib borgan buyuk bobolarimiz va momolarimiz haqida hikoya qilib beriladi. Shular qiyosida To‘maris siymosi yoritib beriladi.
2. O‘quvchilar yordamida “To‘maris” hikoyasini tahlil etiladi. O‘qituvchi yo‘nalish beradi. Vatanning muqaddasligi, xalqimizning fidoyi farzandlar haqida so‘z yuritib, o‘quvchilarni tarix voqealarini anglashga, ulardan hissa chiqarishga o‘rgatadi. Dars monolog emas, dialog, o‘rni bilan bahs-mulohaza asosiga quriladi. O‘quvchilar hayotiy misollar, ko‘rgan kinofilmlar, eshitgan ertaklari asosida fikrlari va o‘ymulohazalarini ifodalay olishga o‘rganishlari lozim.

“Shiroq” afsonalarini o‘rganish va tahlil etish uchun ajratilgan 2 soatda:

1. “Shiroq” hikoyasi o‘quvchilar yordamida birga ko‘rilib chiqiladi va zarur o‘rinlar sharhlab beriladi. “Shiroq” hikoyasi o‘quvchilar yordamida tahlil qilinadi.
2. Ushbu afsonalarga yangi hayot bag‘ishlagan yozuvchi Mirkarim Osimning

ijodi va bosib o‘tgan hayot yo‘li bilan o‘quvchilar tanishtiriladi.

Biz bu soatlardan 1 - soat va 4-soatlarning bat afsil tahlilini bayon etdik.

Yuqorida aytganimizdek, 1 soatda “To‘maris” afsonasi o‘quvchilar bilan birga o‘qib chiqiladi, zarur sharhlar beriladi. Bu hikoyalarni o‘rganish xalqimizning qahramonchilik tarixini o‘quvchilarga tushuntirishda yaxshi bir imkoniyatdir. Lekin darsni ko‘ngildagidek o‘tmoq uchun bir qator shartlarga rioya etmoq kerak bo‘ladi. Shulardan biri balki eng birinchisi, har ikki hikoyani ularga asos bo‘lgan tarixiy voqealardan ularga bog‘lashdir. Buning uchun tarixiy voqealardan xabardor bo‘lish kerak. Birinchi manbalar bilan tanish bo‘lish kerak.

Masalan, o‘quvchilar qalbida ko‘tariladigan savollardan eng muximi, ehtimolki, birinchisi “To‘maris kim?” Uning bizga nima aloqasi bor? Degan savol bo‘ladi. Darsni shu savolga javob berishdan boshlagan ma’qul. Imkon bo‘lsa, tarixiy fikrlarni bugungi yangi materiallar bilan qo‘sib olib borish kerak.

Masalan, o‘qituvchi biz dunyoning eng qadimgi va eng madaniyatli xalqlaridan biri ekanligimizni o‘zi bilgan misollar bilan tushuntirib bermog‘i lozim bo‘ladi. Chunonchi, olimlarimizning yaqinda Farg‘ona vodiysidagi Selengur go‘rida bundan bir million yil oldin yashagan odamlarning suyaklarini topishga muvaffaq bo‘lganliklarini, unga “fergantrop” deb nom bergenliklarini, jahon ilmiy jamoatchiligi bu faktini e’tirof etganliklarini bolalarga sodda qilib tushuntirib berish mumkin. Shu bilan O‘rta Osiyo, jonajon O‘zbekistonimiz insoniyat paydo bo‘lgan ilk beshliklardan ekanligini anglatgan bo‘ladi.

Endi To‘maris kim va u haqidagi afsona qaysi voqealar bilan bog‘liq va bu voqealar bizga qanday yetib keldi degan savollarga javob berish kerak bo‘ladi.

Bunda gapni manbadan boshlansa, maqsadga yetish oson bo‘ladi.

Yani: Bu tarixiy voqealarni bizga qadim yunon ilm-faning eng mashhur vakillaridan bo‘lgan Herodot o‘zining “Tarix” kitobi orqali yetkazadi. Herodotning o‘tganiga 250 yil bo‘lyapti. U “tarix otasi” nomini olgan. Undan oldin o‘tgan tarixchini dunyo bilmaydi. Ana shuning uchun kitobida To‘maris haqida gap ketadi. Faqatgina To‘maris emas u yashagan davr, u mansub qabila va uning qilgan

ishlari yozib qoldirilgan. Yana shuni ham aytish kerakki, u Herodotda “To‘maris” emas To‘marida deb berilgan. Bu xol ushbu nomning ayrim tadqiqotchilar tomonidan “Temirdan olingan bo‘lishi kerak” degan fikrga asos vazifasini bajargan ko‘rinadi. Va bunda ma’lum asos ham bor, albatta.

Shu o‘rinda Xerodat keltirgan “To‘maris” afsonasini bolalarga xavola qilish yaxshi natija beradi. Asar matni bilan tanishishda sharxli o‘qishni maql deb topdik. Tarixiy memuar, ayrim hollarda zamonaviy mavzulardagi asarlar mazmunini o‘zlashtirish sharhli o‘qishni taqozo etadi.

**Sharhli o‘qish lug‘at ustida ishlashni anglatmaydi, balki asardagi obrazli ifodalar, maqol va matallar mazmunini sharplash, tarixiy-afsonaviy, xayoliy-fantastik timsollar haqida ma’lumotlar berish, izohlash kabi murakkab masalalar qamrab oladi.**

O‘quvchilarning, ayniqsa, mumtoz adabiyot na’munalari ma’no-mazmunini o‘zlashtirishni sharhli o‘qishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘tmishda yaratilagn asarlarni bugungi o‘quvchi uchun qadrli, qiziqarli qilish, ularni mutolaa etishni xayotiy zaruratga aylantirishda tarixiylik tamoyiliga amal qiladi. Bu esa o‘sha asarni xaqqaniy baholashga, o‘z davri doirasida o‘rganish va bugungi kunimizga bog‘lab tushunishga imkon beradi. O‘tmish shu tariqa zamonamizga bog‘lanadi. Bunda o‘quvchilarga tarixiy asarlarda tasvirlangan voqealarning vaqt, makonini ham tushuntirish muhimdir”.<sup>1</sup>

Tarixiy asarlar darslik emas. Shuning uchun ham ularni o‘rganishda izohlash talab etiladi. “Shiroq”, “To‘maris” kabi hayotiy asosga ega afsonalar ham shu tahlit o‘rganishni taqazo etadi. Ayniqsa, yaratilgan vaqt bilan asar voqealari kechgan davr o‘rtasida farq katta bo‘lgan matnlar ustida ishlashda tarixiy sharhga alohida zarurat seziladi. Bu xildagi asarlar sharhli o‘qilmasa, o‘quvchilar mumtoz adabiyotimiz namunalari – juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega madaniy merosimiz misolida Vatanimiz o‘tmishi, jafokash xalqimizning azaliy qadriyatları, badiiy-yestetik tafakkurni tarixiga tegishli darajada tushunib yetmaydilar, ma’naviy kamolotga yerisha olmaydilar. Adabiy ta’lim shusiz mukammal bo‘lmaydi.

Mumtoz adabiyotimiz, xalq og‘zaki ijodi namunalari xazinasi adabiyotimiz erishgan ma’naviy boylikka vaqtি-vaqtি bilan ko‘z tashlab buyuk ajdodlarimiz ruhini xotiralaydigan etnografik muzey emas, balki yoshlar tarbiyasiga safarbar merosdir. Bu merosdan qay darajada to‘g‘ri va unumli foydalanish adabiyot o‘qituvchisining mahoratiga birinchi navbatda, matn ustidagi ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga, ta’limning samarali metodlaridan foydalanishga bog‘liq.

**“Sharhli o‘qish faqat matnni emas, balki matn zaminidagi yashirin fikrni ham o‘qishga, asar yuzasidan fikr-mulohazalarini dalillashga o‘rgatadi.”<sup>1</sup>**

Biz yuqorida “To‘maris” afsonasini o‘rganishga doir sharhlar berib o‘tdik. Dars davomida Herodod qoldirgan matn o‘qituvchiga tarixini tushuntirishida asos bo‘lib xizmat qilish kerak. Chunki To‘maris haqidagi bugun biz gapi rayotgan gaplarning barchasi zaminida Herodot bizga qoldirgan voqeа yotadi. U haqida shu paytgacha yozilgan va bundan keyin yozilajak barcha badiiy asarlar mana shu voqeа ustiga quriladi.

Tabiiyki Mirkarim Osimning To‘maris haqidagi hikoyasini o‘quvchilar bilan birga ko‘rib chiqilayotganda unga suyanish, qiyoslash va XX asrdagi o‘zbek yozuvchisining zamonaviy talqiniga urg‘u berish kerak bo‘ladi.

Umuman olganda, bu mavzuning bugungi kunga bog‘lagandagina uning ahamiyati haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Ushbu mavzuning esa, bugungi kun bilan bog‘lanishlari benihoya ko‘p. Masalan, yurtimiz tarixini, ajdodlarimiz shijoatini, kimligimizni bilish, Vatan-yurt tushunchalarining izlash, ona mehri, ornomus masalalari kabi o‘nlab bog‘lanishlarni topish mumkin.

Darsni tashkil qilishda erkin mulohazalarga keng o‘rin berish kerak. O‘quvchilar o‘zлari bilgan misollar bilan muhokamada ishtirok etsinlar. Dars so‘ngida o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoyadagi asosiy qahramonlarni ta’riflab bering.

---

<sup>1</sup>Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А., Адабиёт ўқитиши методикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 102 бет.

2. Kayhisrav yunon manbalarida qanday atalgan?
3. Nega oqsoqollardan biri: Agar shohanshox bizga mehxmon bo‘lib kelsa,..... oyog‘iga qirq qo‘chqor so‘yamiz, deydi?
4. “Quyosh tangrisi” ifodasi nomi nimani anglatadi?
5. Siparganizning o‘limini qanday baholaysiz? U to‘g‘ri ish qilganmi?
6. To‘marisning ona sifatidagi fojiasi va donoligi nimada ko‘ringan?

O‘quvchilar berilgan savollarga erkin yondashib, ularni sharoitidan kelib chiqib, yondashib to‘ldirish, erkin fikrlarni bayon etishi kerak. Mavzu yuzasidan uy inshosi yozish topshiriq qilib beradi. Shuningdek 6-soatning dars ishlanmasini bayon etamiz. Yuqorida aytganimizdek 4-soatda ushbu afsonalarga hayot bag‘ishlagan yozuvchi Mirkarim Osimning hayot faoliyati va bosib o‘tgan ijod yo‘li bilan o‘quvchilar tanishtiriladi, o‘quvchilarning bilim savyalari test orqali tekshirilib, baholanadi. Mashg‘ulotni o‘qituvchi quyidagi qisqa ma’ruzasi bilan boshlab, o‘quvchilarga Mirkarim Osim haqida ma’lumot beradi:

Tarixiy mavzuda ijod qilgan yozuvchilar asosida Mirkarim osimning alohida o‘z o‘rni bor. O‘zbek xalqi tarixining katta bilimdonlaridan biri bo‘lgan bu adib butun ijodini shu qutlug‘ mavzuga, yosh avlodni xalqimiz va mamlakatimizning boy tarixi bilan tanishtirish ishiga bag‘ishlanadi.

Mirkarim Osim Toshkentda tug‘ilgan. Bolalik kunlari Munavvar qori Abdurashidxonov boshliq Tshkent jadidlari muxitida o‘tgan. U 20-yillarning boshlarida Oybek bilan birga Navoiy nomidagi ta’lim va tarbiya texnikumida taxsil ko‘rgan yillarda bu muhitning unga bo‘lgan ta’siri yanada kuchaydi. Shu muhit ta’sirida unda xalqimiz tarixiga katta qiziqish paydo bo‘ladi.

Toshkentda o‘rta ta’limni olgan Mirkarim Osim 1926-1930 yillarda Moskvadagi pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetini tugatdi. Shundan keyin maorif va madaniyat bilan bog‘liq turli muassasalarda xizmat qildi.

Ijodiy yo‘lni she’rlar yozish bilan boshlagan Mirkarim Osim 30-yillarda tarix fanidan qo‘llanma va darsliklar yaratishda qatnashdi. 1940-yilga kelib esa Alisher Navoiy haqida hikoya qiluvchi “Astrabod”, Alisher Navoiy va “Darvishali”, “Badarg‘a” singari hikoya va qissalar yozdi. Shu vaqt dan e’tiboran u

tarixnavis yozuvchi sifatida mashhur bo‘la boshladi.

Mirkarim Osimning tarixnavis yozuvchi sifatidagi qiziqish doirasi nihoyatda keng. Uning “Shiroq”, “To‘maris”, “Temur Malik”, “Iskandar va Spitamen”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Elchilar” singari asarlarning o‘ziyoq bundan dalolat beradi. Adib ijodida Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy, Mashrab hayotiga bag‘ishlangan asarlar yetakchilik qiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilimini test orqali tekshirib ko‘radi. Chunki o‘quvchi yoshlarning bilim darajasini aniqlashda test-sinov usulini qo‘llash yaxshi samara beradi.

Haqiqatda, adabiyot ta’limida test usulining qo‘llanilishi ilgari sinov usullaridan afzal ekanligiga endilikda shakl-shubha yo‘q. Bu afzalliklar anchagina. Test orqali o‘quvchilar bilimini baholashga yangicha yondashiladi, shu tarzda shaxsiy munosbat asosida baholashga chek qo‘yiladi. Test savollari o‘quvchini fanga, o‘qishga bo‘lgan munosabatini keskin o‘zgartirib, uning bilim olish ma’suliyatini oshiradi. O‘quvchini hozirgi tezkor rivojlangan davrga mos ravishda ko‘proq mustaqil ishslash, mutolaa qilish, ijodiy izlanishga chorlaydi. Maktabda o‘qigan o‘quvchi davlat dasturini to‘liq o‘zlashtirsagina test-savollarini muvaffaqiyatli topshira oladi.

Quyida testlardan namunalar keltirdik:

1. Mirkarim Osim qayerda tug‘ilgan?
  - A) Buxoro
  - B) Toshkent
  - C) Farg‘ona
2. Uning bolaligi kim boshchiligidagijadidchilik muhitida o‘tdi?
  - A) Munavvar qori
  - B) Behbudiy
  - C) Cho‘pon
3. “To‘maris” va “Shiroq” afsonalari kimning “Tarix” kitobi orqali yetib kelgan?
  - A) Arastu
  - B) Aristotel

D) Herodat.

4. Bu afsonalar necha yillik tarixga ega?

A) 2000 yil

B) 2700 yil

D) 2500 yil

5. M.Osimning bu hikoyalari badiiy asarmi yoki ilmiy?

A) badiiy

B) ilmiy

D)badiiy-ilmiy

Darsda o‘quvchilar diqqatini jalb qilish uchun ko‘rgazmalardan foydalanish mumkin:

Adabiyot darslarida ko‘rgazmalikdan maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish bilan o‘quvchilarning yozuvchi ijodi va uning badiiy asarlarini, adabiy-nazariy bilimlarini anglab, bilib olishlariga, adabiy-madaniy nutqlarini o‘sirish, ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga erishi mumkin.

Ko‘rgazmalilikning vazifasi xilma-xil bo‘lib, u o‘quvchilarda his-hayojon uyg‘otadi, faollikni oshirishda, o‘tmishdagi madaniy-maishiy hayot to‘g‘risida olgan bilimlarini to‘ldirishda, yozuvchi va uning asarlari, qahramonlari haqidagi tasavvurlarni boyitishda, adabiy-tarixiy, adabiy-nazariy bilimlarini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi.

To‘maris va Shiroq afsonalarini o‘rganishda bu tarixiy qahramonlarning portretlaridan, turli jang tasvirlaridan, tarixga oid ya’ni ilk davlatchilik paydo bo‘lishiga oid rasmlardan foydalanish mumkin.

Shu bilan o‘qituvchi darsga yakun yasaydi.

2-soatida “To‘maris” afsonasining o‘rganilishi yuzasidan dars ishlanmasini bermoqchiman.

### **DARSNING MAVZUSI:**

“To‘maris” afsonasining o‘rganilishi.

## DARSNING MAQSADI:

Asar mazmuni yuzasidan o‘quvchilar fikrini bilish. Asarning g‘oyaviy mazmunini va asar qahramonlarining o‘ziga xos hususiyatlarini tahlil qilish.

O‘quvchilarni komil inson, yurt tinchligini, Vatan ravnaqi g‘oyalari ruhida tarbiyalash.

## DARS TURI:

Noananaviy, asarni o‘qib, yakunlash, uygaga vazifa qilib berilgan o‘quvchilarning mustaqil fikrlari asosida yangi mavzu, ya’ni asar mazmunini tahlil qilinadi.

## DARS JIHOZI:

Darslik, mustaqil tayyorlangan jadval, Mirkarim Osim asarlari (“Jayxun ustidagi bulutlar”)

## DARSNING BORISHI:

**I Tashkiliy qism:** Davomatni aniqlab, navbatchi bilan suhbatlashishi, uygaga vazifa nazorati va o‘tilgan mavzuni esga olish.

- O‘tgan darsda qanday mavzu bilan tanishdik?
- mirkarim osim haqida gapiring?
- mirkarim Osimning afsonallaridagi tarixiy haqiqat haqida so‘zlang.

## II Yangi mavzu bayoni:

Mavzu: “To‘maris” asarini o‘qish va tahlil qilish bo‘lgani uchun uni noan’anaviy so‘rov asosida olib boriladi, chunki o‘qib kelish vazifa qilib berilgan. Buning uchun sinfni 5 guruhgaga bo‘lamiz. Har bir guruh o‘zi uchun tarqatma tanlaydi:

1-tarqatma.

A. Sparangiz va uning safdoshlari halokati.

B. Vatandoshlarini qay ahvolga soldi?

V. Ular kimni bu mudhish voqeanning aybdori deb topdilar.

2-tarqatma.

O‘g‘lining o‘limidan so‘ng To‘marisning qanday sifatlari sizni qoyil qoldirdi?

Ona To‘marisning ichki kechirmalari sizni larzaga solidimi: Izohlab bering?

3- tarqatma.

To‘maris tish-tirnog‘igacha qurollangan Eron qo‘sishinlarining ustidan qanday qilib g‘alabaga erishdi? G‘alabaning asosiy omillarini sanab bering.

4-tarqatma.

Eron shohi Kayxisravning mag‘lubiyati sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

5-tarqatma.

“To‘maris” afsonasi sizni nimalarga o‘rgatdi? Qaysi qahramonlar sizga yoqadi, nima uchun? Qaysi voqealar sizni hayajonga soldi?

Tanlangan tarqatma asosida ma’lum muddat tayyorlanib har bir guruh sardori chiqib javobini guruh fikriga asoslanib beradi. Javob bergen guruhga boshqa guruhlarda qo‘sishimcha fikr bo‘lsa tinglanadi. Shu tariqa matn tahlili kelib chiqadi.

III Mavzuni mustahkamlash.

1. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib matnidan parcha o‘qiydi. Uning o‘qish ifodasi baholanadi.
2. Quyidagi jadval har bir guruhga beriladi. Kim to‘g‘ri va tez bajarishiga ko‘ra har besh guruh baholanadi.

“To‘maris” jadvali.

<b>Asosiy qahramonlar</b>	<b>Ularning o‘ziga hos sifatlari</b>	<b>Orzu-maqsadlari</b>	<b>Orzu-maqsadlariga to‘sinqilik qilgan insonlar va vositalar</b>	<b>Maqsadlariga erishishlarida yordam bergen insonlar va vositalar.</b>
To‘maris				

Sparangiz				
Zarina				
Kayhisrav				

3. Marg‘iyonida Yaksart, So‘g‘diya, O‘kiz, Massaget-so‘zlari bo‘yicha lug‘at va tushuncha yozing.

IV DARS YAKUNI: Mavzuni umumlashtirib, guruhlar ballari e’lon qilinadi. G‘olib guruhlar rag‘batlantiriladi.

V UYGA VAZIFA: Afsona yuzasidan “To‘maris-mardona ayol” mavzusidagi inshoga tayyorlanish.

#### VI. O‘QUVCHILARNI BAHOLASH:

Mening ushbu bir soatlik darsimni kuzatish uchun maktab o‘qituvchilarini taklif qildim. Mana ulardan biri o‘qituvchi G.Meliboyevaning mening darsim uchun yozgan tahlili:

Kuzatilgan dars: Adabiyot.

Sana:

O‘qituvchi: Tursunova Dilafroz Sinf: 5- sinf

Ma’lumoti: Talaba

O‘quvchi soni: 33 ta

Toifasi: Amaliyotchi

Qatnashdi: 31 ta

Tahlildan maqsad: Amaliyotchi darsini kuzatish va unga uslubiy yordam berish.

Yangi mavzu: Mirkarim Osimning “To‘maris” afsonasini o‘qish.

Dasning borishi.

Amaliyotchi: Sohiba Karimova darsga kirishi bilan sinf xonasining ozodaligiga, o‘quvchilarning maktab kiyimi, davomati, o‘quv qurollari, darsligi va kundaligiga e’tibor berdi. Darsni to‘g‘ri tashkil etdi. O‘quvchilar e’tiborini tortish maqsadida

o‘qituvchi darsni chiroyli, she’riy misralar o‘qish bilan boshladi.

O‘tilgan mavzu. “Mirkarim Osimning hayoti va faoliyati” haqida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazildi.

Yangi mavzu. “To‘maris” afsonasi bo‘yicha o‘qituvchi uslubiy-adabiy qo‘llanmalar, mustaqil chizilgan jadval va rasmlar dars ko‘rgazmalarini tayyorladi. Dars uchun ishlangan ko‘rgazma va mayda tarqatmalar estetikasiga katta e’tibor berilgan. Mavzuni amaliyotchi yangi pedagogik texnologiyaga asoslanib, noan’anaviy suhbat-musobaqa usulida boshladi. Dars mavzusi uchun qo‘yilgan shartlar reja asosida ko‘chma doskada berilgan.

1. O‘tilgan mavzu- uyga vazifa so‘rovi.
2. Yangi mavzu bo‘yicha tarqatma savollar javoblar.
3. Asarni baiiy o‘qish musobaqasi.
4. Matn tahlili yuzasidan jadval to‘ldirish.
5. Lug‘at ishi.

Amaiyyotchi tomonidan yangi mavzuni o‘qish uyga vazifa qilib berilgan edi, bu darsda sinfni 5-guruuhga bo‘lib, yuqorida reja asosida suhbat musobaqasini olib bordi. Amaliyotchi darsda o‘zini juda erkin, o‘quvchilar bilan yaqin va muloyim muomilada tutdi. O‘quvchilarga tortishish uchun tanlangan “To‘maris” asari matni yuzasidan tanlangan savollar ilmiy jihatdan puxta, o‘quvchilarga tushunarli ravishda tayyorlangan. Guruhlar uchun konvert yasalgan va guruhlar nomlanib har bir to‘g‘ri javob uchun mos guruuhga bittadan rag‘bat kartochkasi o‘qituvchi tomonidan solib boriladi. Dars juda jonli, qiziqarli, muzokaraga boy bo‘ldi. Dars yakunida konvertdagi rag‘batlar sanalib, g‘olib guruh e’lon qilindi. G‘olib guruh va darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirildi. Uyga vazifa berildi: “To‘maris-mardona ayol” mavzusidagi inshoga tayyorlanish.

Darsda erishilgan yutuqlar.

1. Sinf xonasi va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi yaxshi, o‘qituvchi bunga e’tibor beradi.
2. Dars to‘g‘ri tashkil qilindi, dars bosqichlari, vaqt taqsimotiga e’tibor berildi.
3. DTSning o‘quvchilarga talabi eslatiladi.

4. Dars noan'anaviy holda, ko'rgazmalarga boy, doskadan unumli foydalanish asosida o'tildi.
5. Darslikdan, qo'shimcha adabiyotlardan unumli foydalandi.
6. Dars ona-tili, geografiya, tarix, milliy istiqlol g'oyasi darslariga bog'landi.
7. Amaliyatchi va o'quvchilar bilimi talabga javob beradi.
8. Dars davomida o'quvchilarning ta'lif-tarbiya birligiga, chuqur ahloqiy-ma'naviy tarbiyaga e'tibor berildi.
9. O'quvchilarga mustaqil ish turlari yetarlicha beriladi va ularga javob qoniqarli olindi. Bu amaliyotchini darsga yetarli poydevor qo'yanidan dalolat beradi.
10. Darsda qo'llangan ish turlari mavzu doirasida.
11. O'qituvchi qo'yilgan maqsadga erishdi, o'quvchilar mavzuni 90 foiz o'zlashtirdilar.

Darsning kamchiliklari.

1. O'qituvchi o'quvchilarning darsliklarini saqlanishiga ularni o'rabi tutishiga e'tibor bermadi.
2. "To'maris" asaridagi tabiat manzarasi esga olinadi, lekin shu yerda ekologik tarbiyaga e'tibor berilmadi.
3. Past o'zlashtiruvchilarni ko'proq doiraga tortish kerak edi.
4. Texnik vositalardan foydalanilmadi.

XULOSA:

Dars "yaxshi" baholandi.

Dars tahlil qiluvchi metodist o'qituvchi: Inomiddinova D.

### **3.2. ."Shiroq" mavzusi uchun dars ishlanmasi va tahlili**

"Har qaysi millatning o'z afsonaviy bahodiri" sevgan pahlovoni bor degan edi I.Karimov. Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz haq gapni aytganlar. O'zbek xalqi o'zining Rustam, Alpomish, Spetamin, Jaloliddin Manguberdi singari buyuk daholarni olamga nomoyon qiladi, ularning qilgan ishlarini dunyoga doston qiladi.

Shiroq ham shular jumlasiga kiradi. Bu haqiqat Poliyen (II asr) o'z asarida

ham to‘htalib o‘tgan. “Shiroq” eposi ham “To‘maris” kabi O‘rta osiyo aholisining chet el bosqichlariga qarshi keldi. Qahramon massagetlar Kir ko‘rinishini tor-mor qildilar. Lekin, keyingi ahmoniy shohlari undan saboq olmadilar, ular O‘rta Osiyoga bostirib kirish va el-yurtni talashni davom ettirdilar. Doro I (521-485) shunday yovuz shoxlardan biri edi. Shak qabilalari Doroga qarshi 513 yil katta qo‘zg‘olon ko‘targan edilar. Shu voqeа “Shiroq ” eposiga asos bo‘lgan bo‘lsa kerak.

“To‘maris” kabi “Shiroq” ning ham asl nushasi saqlanmagan Polienning “Harbiy hiylalar” kitobida quyidagicha hikoya qilingan:

Sak qabilasining tinchligi va mustaqilligi havf ostida qoladi. Yovuz niyatli Doro yaqinlashib kelmoqda. Shak hukmronlari (Omarg, Saksfar, Oamiris) dushmanga qarshi rejasini tuzayotgan paytdi cho‘pon Shiroq paydo bo‘ldi.

U dushmanni yengish rejasini o‘ylagan. Bu reja Shak qabilalarini Doroning ulligi hafidan qutqaradi. Dushmanni halokatga olib boradi. Buning uchun Shiroq ongli ravishda o‘zini qurban qilishi kerak. Reja maqullanadi. Go‘yo Shakillarning g‘azabiga uchrab, badani dabdala qilingan va qabiladoshlaridan qasos olmoqchi bo‘lgan Shiroq Doro qo‘shinini “ko‘chib ketgan” Shaklarning yo‘lini 7 kun deganda “kesib chiquvchi yo‘lga” boshlaydi. Shiroq dushmanni bepayon cho‘l-biyobonga olib boradi. Dushmanning ochlik va suvsizlikdan halok bo‘lishi muqarrar. Shiroq “Men yengildim, yolg‘iz o‘zim butun boshli bir qo‘shinni yengdim, jonajon qabilam Shaklar va ona tuprog‘im boshiga kelgan baloni daf qilib, bosqinchi Doro lashkarlarini halokatga olib keldi, to‘rt tomonning har qaysisi yetti kunlik yo‘l, istalgan tarafingizga ketavering. Baribir barchangizni ochlik va tashnalik yemirib nobut qiladi. Mening qonim esa shu yerga to‘kiladi”, -deb o‘limini mardlik qahqahasi bilan kutib oldi. Yettinchi kuni ham Shaklardan darak topolmagan Doroning qo‘shin boshlig‘i Ranosbat Shiroqning kallasini chopib tashlaydi.

Doro baland qoyaga chiqib Apallon (Quyosh xudosi) dan yomg‘ir so‘raydi. Yomg‘ir yog‘ib, qolgan-qutgan askarlar meshlarni suvgaga to‘ldirib, cho‘l dahshati va halokatidan zo‘rg‘a omon qoldilar.

Shiroqning dushmani bepayon cho‘l-biyobonga olib borishi, O‘rta Osiyo aholisining qadim zamonlarda dushmanlarga qarshi yo‘llagan harbiytaktikasini eslatadi. Grek tarixchisining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘rta Osiyo Aleksandr Makedoniskiy qo‘siniqda qarshi kurashda ham ana shunday taktikani qo‘llagan ekanlar. Jonajon qabila va ona tuproq Shiroqqa mislsiz kuch, temir iroda baxsh etgan edi.

“Shiroq” afsonasining yangi adabiyotlarida yaratilishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bir muncha Polienning bergen ma’lumotlaridan farq qiladi. Yozuvchi Mirkarim Osim yaratgan “Shiroq” afsonasida Shiroqning asl ismi Rustam bo‘ladi. Yana bir o‘ziga xos farqini sezamiz.

Polien keltirilgan ma’lumotlarda katta cho‘lu biyobonda suvsizlikdan sillasi qurigan Doro qo‘siniqlariga Doro baland qoyaga chiqib, Appalon (Quyosh xudosi) dan madad so‘rab, ularni o‘limdan qutqarardi-yozgan. Mirkarim Osim asarida esa umuman boshqacha: Unda Ranosbat va uning qo‘siniqlari katta cho‘lda oziq-ovqatdan ayrılib, suvsiz qolganda Shiroqdan madad so‘rab, Agar sen sahro quduqlari va chashmalarni bizga ko‘rsatsang gunog‘laringdan kechib, So‘g‘diyada istagan qishloqlardan birini senga inom etardik. Shiroq esa buni inkor etdi. Buni qarangki, vaqt o‘tishi bilan asarlar o‘rtasida farqlar shakillanib boradi. Bu esa yozuvchining mahoratiga bog‘liq.

“Shiroq” hikoyasi xalqimizning chet-yel bosqichlariga qarshi kurashdagi fidoiylik va jasorat namunasi hikoyada xiyla va tadbirkorlik ham bor. Chunki, dushman bilan kurashda birinchi kuchning o‘zi kifoya qilinmaydi. Aql bilan ish ko‘rish xiyla tadbirkorlik lozim bo‘ladi. Bobolarimiz Vatanni saqlab qolish uchun kuch ham, aql ham topa olganlar. Hikoyada Shiroq mehr-muhabbat bilan tasvirlangan. U sahroyi cho‘pon bo‘lishiga qaramay, so‘z va sozni sevadigan, ko‘plab dostonlarni yod bilgan, nozik qalb inson. U ham hayotni sevadi, yashashni sevadi. Lekin Vatanni hamma narsadan ustun qo‘yadi. Demak, ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, Shiroqlar davrida ham dostonlar yaratilgan ekan degan taxminga boramiz. Bu ta’rif Mirkarim Osimning bergen ta’rifidir.

Bu afsona orqali yoshlar ongiga Vatanga sadoqat, ona-yerni asrash, ularni

mard-jasur inson qilib tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Maktablarda esa o‘quvchilarga uni o‘tishda dars shakillarida o‘qituvchi oldiga katta imkoniyatlarni, talablarni, pedagogik mahoratini talab qiladi.

**SUHBAT**– ta’limdagi ikki tomonlama aloqaga tayanadigan usullardan biri. Bundagi asosiy maqsad o‘qituvchining maqsadga yo‘naltirilgan savollari orqali o‘quvchining yangi materialni tushunishi va oldin o‘zlashtirganlarini nazorat qilishdan iborat bo‘ladi.

Mirkarim Osimning “Shiroq” afsonasi yuzasidan bir soatlik dars ishlanmasi:

Mirkarim Osimning “shiroq” afsonasini o‘rganish uchun DTSda 3 soat vaqt ajratilgan, 2 soat asar matnin o‘rganish, 1 soat savol va topshiriqlar ustida ishlashga mo‘ljallangan. Men 1 soat dars ishlanmasini yoritmoqdamagan:

**DARSNING MAVZUSI:**

“Shiroq” afsonasi.

**DARSNING MAQSADI:**

“Shiroq” hikoyasiga asos bo‘lgan afsona-rivoyat to‘g‘risida o‘quvchilarga muxtasar ma’lumot berish.

1. Hikoyaning bir yarimi Shiroqning Doro qarorgohiga jo‘nab ketganiga qadar voqealar ifoda etilgan qismi matni bilan tanishish va tahlil qilish.

2. O‘quvchilar qalbiga Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat tuyg‘usini singdirish.

**DARS JIHOZI:**

Darslik, qo‘llanmalar: 6-sinf “O‘zbekiston tarixi”, Mirkarim Osim. “Karvon yo‘llari”.

**DARSNING BORISHI:**

1. tashkiliy qism: Navbatchi bilan suhbatlashish, davomatni aniqlab, o‘tilgan mavzu va vazifani nazorat qilish.

“Shiroq” hikoyasi darslikdagi “Afsonalar sadosi” bo‘limining ikkinchi asari ekanini u avval o‘rganilgan “To‘maris” afsonasi bilan o‘xshash, chunki unda ham “To‘maris” dagi joy va davr voqealari hikoya qilinishini o‘quvchilarga eslatib o‘tiladi.

II Yangi mavzu bayoni:

O‘tilgan mavzuni esga olish bilan birga “To‘maris” hikoyasiga yangi mavzu “Shiroq”ni bog‘lab, ulardagi ajralmas uyg‘unlik Vatan tuyg‘usi, vatan farovonlik, fidoiylik g‘oyalari haqida aytib o‘tish bilan yangi mavzu bayoni boshlanadi. Buyuk ajdodlarimizning Vatan ozodligi, mustaqilligi yo‘lidagi mislsiz jasoratlari, fidoiyliklari qadim-qadim zamonlardayoq jahonni qoyil qoldirganligida.

Hayratga solganligi bizga ma’lum. Buning yorqin dalili sifatida Qadimgi Yunon tarixchisi polienning (yeramizdan oldingi II asr) “Harbiy xiylalari” kitobida keltirilgan. Shiroq haqidagi ma’lumotlarni eslaylik, Shiroqning jasorati ikki yarim ming yildan beri og‘izdan tushmaydi, u haqida xilma-xil afsona-rivoyatlar asosida bizning zamonimizda ko‘plab yozuvchi, shoirlar “Shiroq” haqidagi turli janrlarda asarlar yozganlar. Mirmuhsin dostoni, Mirkarim Osim hikoyasi shular jumlasidandir.

Mirkarim Osim hikoyasida Shiroqning Eron shohi Doro bosqiniga (yeramizdan oldingi 519-yil) qarshi ona-yurt hikoyasi yo‘lida ko‘rsatilgan jasorati, fidoiyligi muxtasar tarzda jonli, hayotiy va ta’sirchan ifodalangan.

Hozir shu hikoyani 1-dars uchun mo‘ljallangan qismini ifodali o‘qib, matnni tahlil qilamiz.

### III.Mavzuni mustahkamlash:

1. Hikoyani zanjir shaklida ifodali o‘qish.
2. Matn yuzasidan suhbat metodida ihlanadi.

- sak qabilalari har gal bahor faslini qanday tarzda o‘tkazar edi? Nega bu safar ularning ko‘ngliga qil sig‘maydi? Matndan shu o‘rnlarni toping.

- Sakfar va Rustak takliflarini siz qanday baholaysiz? Qaysi birini ma’qullaysiz?

- Keyingi paydo bo‘lgan shiroqning taklifi, rejasи nimadan iborat. Shiroq o‘z rejasini nega yolg‘iz Rustakkagina bildirishni lozim ko‘rdi.

- Shiroq o‘tovdan qanday holda chiqdi? Uning bu holatga tushganining sababi nimada deb o‘ylaysiz?

3. Mustaqil ish. Hikoyada Shiroqning kimligi, odatlari, qiyofasi tasvirlangan o‘rnlarni aniqlab, daftarga ko‘chirib yozish o‘quvchilaga topshiriq qilib beriladi.

#### 4. Tezkor savol-javob daqiqasi.

- Shiroq haqidagi afsonada qaysi davr voqealari hikoya qilinadi?
- Miloddan burungi, eramizdan oldingi yil hisobi tartibi qanday?
- Afsonadagi tarixiy shohlar kimlar? Mirkarim Osim kim? Shiroq kim?

Dars yakuni: Shiroq-Vatan himoyasi yo‘lida joinin tikkan foydani inson, mangu o‘lmas xalq qahramoni, xalqimizning mustaqilligi uchun kurashgan mard farzandlardan biri ekani haqida xulosa hosil qilish.

#### IV. Uyga vazifa:

1. Darslikdagi savol-topshiriqdar asosida tayyorgarlik ko‘rish.
2. Har kim Shiroqni o‘z tasavvurida rasmini ishlash.

Bir soatlik darsni kuzatish tahlili:

Kuzatilgan dars: Adabiyot	sana: 18-noyabr
O‘qituvchi:Nodirova M..	sinf: 5 V
Ma’lumoti: oliv	o‘quvchilar soni: 34 ta
Toifasi: mutaxassis o‘qituvchi	qatnashdi: 33 ta
Ish malakasi: 7 yil	

Tahlildan maqsad: Uslub o‘rganish.

<b>Darsning borishi</b>	<b>Darsning yutuqlari</b>	<b>Darsning kamchiligi, takliflar</b>
Dars o‘z vaqtida boshlanadi. O‘qituvchi va navbatchi bilan suhbatlashadi. Uyga vazifa va o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat qildi. She’riy lahzalar o‘tkazildi. O‘tilgan mavzu “To‘maris” asari	1. Dars o‘z vaqtida boshlanadi va noa’anaviy holda she’riy lahzalar bilan tashkillanadi. 2. Dars mavzusiga oid uslubiy qo’llanmalar tarqatma materiallar yetarli va ular estetik talablarga javob beradi.	1.Darsda ko‘rgazmalilik, ham texnik vositadan qo’llanilmadi. 2. Taklifim: asar rollarga bo‘lib o‘qitsa maqsadga muvofiq bo‘ldi.

<p>yuzasidan tezkor, qiziqarli savol javob o‘tkazildi. Dars uchun zarur qo‘llanmalar bilan tanishtiradi yangi mavzu “Shiroq” afsonasini o‘tishni boshlashda “To‘maris” bilan boshlanadi. Yangi mavzu o‘qituvchi bayoni asosida mohiyatini yaratish, yaratilish tarixi va mazmunini so‘zlab berdi. O‘z bayoni davomida muammoli vaziyatlar bilan o‘quvchilarni ko‘p bor baxsga tortdi. Mustahkamlash qismida o‘qituvchi o‘quvchilarni badiiy va ifodali o‘qishga e’tibor berdi va talab qildi. O‘zi namunali o‘qib ko‘rsatadi so‘ng matn taxliliga oid savol-javoblar o‘tkazdi. Test asosida so‘rovlar olib borildi. Tezkor savol-javob o‘tkazilib o‘quvchilarni o‘zini o‘zi</p>	<p>3. O‘qituvchi o‘z kasbini mohir ustasi, pedagoglar mahorati yetarli ilmiy ma’lumotlarni chuqur egallagan.</p> <p>4. dars geografiya, tarix, odam anatomiyasi, vatan tuyg‘usi, jismoniy tarbiya fanlariga bog‘lanadi.</p> <p>5. Dars hayotiy misollar ma’naviy tarbiyaga boy.</p> <p>6. O‘qituvchining nutqi ta’sirchan va chiroyli.</p> <p>7. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan ko‘proq ishlaydi. Past o‘zlashtiruvchilarga e’tibor beradi.</p> <p>8. O‘tilgan mavzuni ham, yangi mavzuni ham o‘qituvchi va o‘quvchi yaxshi o‘zlashtirganlar.</p> <p>9. O‘qituvchi ilg‘or pedagog tajribalarini ish faoliyatida tadbiq etadi.</p> <p>10. Darsda javob bergen o‘quvchi rag‘batsiz qolmaydi.</p> <p>11.Dars etaplari va vaqt to‘g‘ri taqsimlangan.</p>	
---	--	--

baholashga beriladi.	imkon Darsda	12. Darsda milliylik vatanparvarlik,	
qatnashgan o‘quvchilar	faol	qahramonlik g‘ururiga katta e’tibor berilgan.	
rag‘batlantiriladi. o‘zlashtiruvchilarga	Past	13.O‘qituvchilarga uyga vazifa ijodiy tarzda	
qo‘s Shimcha osonroq topshiriqlar berildi. Uyga vazifa noan’anaviy tarzida		mustaqillikka moyil	
“Shiroq” rasmida beriladi. Qo‘s Shimcha darslikdagi savol va toashiriqlarga og‘zaki tayyorlanish.	timsolini tasvirlash	tarzda beriladi.	

Dars kuzatuvchining xulosasi: O‘qituvchining darsini kuzatar ekanman darsdan o‘zimga kerakli pedagogik mahoratni, dar o‘tish uslublarini, darsni taqsim qilishlarni o‘rganib oldim. Agar o‘qituvchi dars o‘tish jarayonida Prezidentning asarlaridan foydalanib uning paglaridan misollar keltirib, hayotdan misollar keltiribo‘tilsa dars yaxshi bo‘ldi. Undan tashqari Shiroq, To‘marisga misollar tariqasida tushuntirib, Shiroq, To‘marislarning jasoratlarini o‘quvchilarning ongiga singdirishda milliy istiqlol hoyalaridan foydalanib o‘tilganda, menimcha foydadan holi bo‘limgan bo‘ldi. Agar milliy istiqlol g‘oyasining bosh maqsadi o‘quvchilar ongida Vatanga bo‘lgan sadoqatni shakillantirish, o‘quvchilarni Vatanga muhabbat-Onaga, oilaga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni komil inson qilib tarbiyalashdan iboratdi.

Lekin dars menga yoqdi. Ko‘plab uslubiy va ilmiy saboq oldim. “To‘maris” va “Shiroq” fasonalarining saqlanish manbalari haqida ma’lumot. “To‘maris” afsonasi ahmoniyalar davrida bo‘lib o‘tganligi haqida bizga tarix

asarlaridan ma'lum. Lekin bizgacha asl nusxasi yetib kelmagan. Bu afsona mashhur tarixchi Gerodat “tarix” asarida berilgan bo‘lib, hozirda uni badiiy to‘qimalar bilan jilolantirib, o‘quvchilarga kitob holida chop etgan, yozuvchimiz Mirkarim Osimning “Jayxun ustida bulutlar” asarida berilagn. Undan tashqari, Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” ning birinchi tomida ham berib o‘tilgan. Yana tarixchi Polienning “Harbiy xiylalar” asari, Mirkarim Osimning yana bir asari “Karvon yo‘llarida” asari anashularning isboti desam bo‘ladi.

Demak, o‘quvchi qanchalik o‘zi urinib, o‘zi yangi bilimlarni izlab topsa, o’zlashtirsa, bunday mehnat bolaga katta quvonch baxsh etadi. Bola yanada intilib, izlanib mehnat qila boshlaydi. Bunday mehnat bolaga ko’tarinki ruh va ilhom bag’ishlaydi. Bu holda o‘qituvchi bolani to‘g’ri yo’naltirib, tegishli shart-sharoit yaratib berishi va bu borada ota-onalar hamda ilmiy jamoatchilik bilan yaqindan aloqada bo‘lishi talab etiladi.

## XULOSA

Men malakaviy ishimni yakunlab, xulosa qilar ekanman, otabobolarimizning yaratgan va bizgacha yetib kelgan tarixidan hakoya qiluvchi “To‘maris”, “Shiroq” afsonalari, undagi bosh qahramonlar To‘maris, Sparangiz, Shiroqlarning ko‘rsatgan jasoratlari har bir kitobxonni, har bir o‘g‘il-qizni vatanparvarlikka, fidoiylikka undaydi. Mifologik asarlar va rivoyatlar o‘tmish xotiralarini bir bora bo‘lsada esga soladi, bizni xotiraga chorlaydi. Afsonalar orqali insonlarning yaxshilikning yomonlik ustidan, ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasini aks ettiradi. Har bir xaqning o‘ziga yarasha pahlavonlari, botirlari bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham o‘z jasur, mard, botir o‘g‘lonlari bor. To‘maris, Shiroq, Rustam, Jaloliddin Manguberdi singari buyuk dovrug‘i dunyo dostonlar hozir ham bizning elimizni o‘z bosib o‘tgan qadamlari bilan asrab kelmoqdalar, desam adashmagan bo‘laman. Men erta-indin o‘zimning ish faoliyatim davomida maktabda “o‘quvchilar”ga shu mavzular, ya’ni “Afsonalar” “Shiroq”, “To‘maris” afsonalari asosida dars o‘tadigan bo‘lsam, 4 yillik talabalik davrimda olgan bilimlarimga, ustozlarim bergen bilimlari, ta’lim-tarbiyalariga va pedagogik amaliyotimda maktab o‘qituvchilarining bergen yo‘llanmalaridan orttirgan tajribalarimdan kelib chiqqan holda dars o‘taman. O‘qituvchilarim ongida Vatanparvarlik, Vatanga bo‘lgan sadoqatni shakllantirib, hozirgi bo‘layotgan voqealarga ham, ularning kelib chiqish sabablarini, o‘quvchilarga o‘tmishimiz, ular manashu To‘maris, Shiroq orqali qanday inson bo‘lishlarikerakligini ham o‘qitib, ham uqtirib o‘tishni o‘zimga maqsad qilib qo‘ydim.

Mustaqil O‘zbekistonimiz manashunday mard, jasur o‘g‘lonlar bilan faxrlanishini istayman va Vatan oldidagi insoniylik burchlarini har bir inson unutmasligini chin dildan xohlayman.

Pedaqoqik amaliyot davrida menga bir o‘quvchim savol berib qoldi:

- Ustoz, “Ona” bilan “Vatan”ning o‘rtasida qanday yaqinlik bor. Onani ham muqaddas deymiz, vatanni ham?

Men bu savolga o‘ylanib, hayotddan kelib chiqqan holda javob berishga harakat qildim.

Javob: To‘g‘ri ikkalasi ham bir-biriga yaqin narsa.

-Onang seni dunyoga keltiradi, oq yuvib, oq tarab katta qiladi, kiyintiradi, o‘zi yemay yediradi, mustaqil hayotga boshlaydi, tunu-kun sen uchun o‘ylanadi.

- Vatanchi! Onang senga bergen har bir narsani o‘zing yashab turgan qishlog‘ingni zarrin tuproqlaridan yetkazilgan, o‘sha kiygan kiyiming, tinch-totuv hayoting, ichgan suving, yegan noning! Bular hammasi o‘sha qishlog‘imning tuproqlarining in’omidir.

Shundan ko‘rinib turibdiki, Vatan onangga, onang-senga beradi. Senchi? Sen esa katta bo‘lib, ham onangga, ham vataningga qilganlarini qaytarishing kerak, ularni har xil balolardan asrashing kerak!

Men ishonaman-ki, bir o‘quvchi orqali butun sinfning ongiga Vatan, ona nimaligini ozgina bo‘lsa ham singdirdim deb o‘ylayman.

Bugun biz qadriga yeta boshlagan vatanimizni ota-bobolarimiz, jahonga mashhur sarkardalar, ma‘rifatparvar kishilar ko‘z qorachig‘iday asrashgan, millat sha‘ni va or-nomusi uchun jang qilishgan. Shuning uchun ularning unutilmas nomlari tarixda qolib, og‘izdan-og‘izga o‘tib, afsonaga aylangan bo‘lsa ajab emas.

To‘marisning yengilmas Kir II day qonxo‘r podshoh ustidan g‘alaba qozonishio‘z xalqi, vataniga bo‘lgan muhabbati, chin e‘tiqodining natijasidir. Bu kabi voqealar ikki yarim ming yil oldin yuz bergen bo‘lsa-da, yosh avlodni vatanga e‘tiqod ruhida tarbiyalashda o‘z qadrini yo‘qotgan emas.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi “Xalq so‘zi” 2016- yil 8 –dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент: Шарқ, 1997.
4. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008
5. Каримов И.А. Адабиётга эътибор маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
6. Акрамов F. Мифологиянингайрим эпикжанлар билан ўзаромуносабати Ўзбекфолклорининг эпикжанлари. – Тошкент.: Фан, 1981.
7. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – Т.: Sharq, 2015.
8. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида «сехрли» рақамлар. – Тошкент.: Фан, 1991.
9. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А., Адабиёт ўқитиши методикаси Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
10. ИмомовК. Афсона // Ўзбекфолклиочерклари. 2-том. – Тошкент, 1989.
11. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
12. Мадаев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. Т., Шарқ, 2001
13. Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. Т- Ўқитувчи, 1996.
14. Mirkarim Osim, Akram Kattabekov suhbat: Tarixdan saboq olib. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1997. 28 mart.
15. Mirkarim Osim. Shiroq. Qissa- Toshkent, 1995.

16. Мирқосимова М. Ўқувчиларни адабий – эстетик таҳлилга ўргатиши. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
17. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent,Yangi asr avlodi. 2005
18. Ниёзметова Р. Ўзбек тили дарсларида янги ўзбек адабиётини ўқитиш масалалари. Тошкент, 2010.
19. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. – Т.: Тамаддун, 2010.
20. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.
21. To‘xliyev B., Niyozmetova R.va b. Til va adabiyot ta’limining zamонавиј texnologiyalari. – Т.: Toshkent, 2011.
22. To‘xliyev. B.O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi. – Т.: Yangi asr avlodi, 2006.
23. To‘xliyev B.va b. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. –Т.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.
24. Умаров С. Ривоят ва ҳаёт. –Т., Фан, 1988.
25. Камбарова С. Мустақил мутолаа ва адабий таҳлил. Тошкент, 2015.
26. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: муаммо ва ечимлар. Тошкент, 2009.
27. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт-маънавият мустақил фикр шакллантириш омили. Тошкент, 2009.

**Internet ma’lumotlari:**

[www.literatura.uz](http://www.literatura.uz)  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)  
[www.o`zbek adabiyoti. Com](http://www.o`zbek adabiyoti. Com)  
[www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz) sayti